

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI KAFEDRASI**

5111200 – o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lif yo'nalishi

4- "V" kurs talabasi

GULMANOVA QUNDUZ ERIMMATOVNA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «O'ZBEK TILIDAN O'RGATUVCHI
AUDIODASTURLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI (6-SINF
“ONA TILI” DARSLARI MISOLIDA)»**

Talaba:

Q.Gulmanova

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

Kafedra mudiri:

p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

O'zbek tili va O'zbek adabiyoti kafedralari qo'shma yig'ilishining 2018-yil 30-maydagi 5-bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

NUKUS – 2018

Gulmanova Qunduz Erimmatovnaning “O‘zbek tilidan o‘rgatuvchi audiodasturlar yaratish texnologiyalari (6-sinf “Ona tili” darslari misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%») qo‘yildi.

«____» _____ 2018-yil

DAK kotibi:

O.Haytboyev

MUNDARIJA

Kirish. Bitiruv malakaviy ishining umumiyl tavsifi.	2
Birinchi bob. Til ta'limida audiodasturlardan foydalanish tajribasi	7
1.1. Til o'qitishda autentik materiallar: tarix va zamonaviy yondashuvlar	7
1.2. Til ta'limida audiodasturlarning ahamiyati.	12
Ikkinchi bob. O'zbek tilidan o'rgatuvchi audiodasturlar ishlab chiqish texnologiyasi	17
2.1. 6-sinf "Ona tili" darsligiga ilova qilinadigan audiokursning tuzilishi va mazmuni.	17
2.2. "Ona tili. 6-sinf" audiodasturidan foydalanish uchun ko'rsatma.	45
Uchinchi bob. "Ona tili. 6-sinf" audiodasturining funksional imkoniyatlari	49
3.1. Audiodasturlardan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish tajribasidan.	49
3.2. Mavzuni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.	54
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	62

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbliji. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan e’tirofga sazovar bo‘lgan “o‘zbek modeli” deb nom olgan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi taraqqiyoti yo‘lini belgilab olinishi bilan bir qatorda jamiyatni ma’naviy yuksaltirish hamda shaxsning ma’naviy kamolotiga erishuvi ustuvor vazifa sifatida belgilandı. Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, kasb-hunar o‘rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o‘stirish uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyatlarni yaratish, ayni paytda ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlatning doimiy e’tiboriga olindi.

Mazkur maqsadni amalga oshirishda qabul qilingan O‘zbekistonning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi, mazkur dasturning mantiqiy davomi bo‘lgan “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi” va boshqalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali Yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorini qo‘yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi.

Umumta’lim maktablarini isloh qilish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, axborot texnika asrida o‘z o‘rnini topa oladigan, jahon andozalariga mos raqobatdosh, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda davlatimiz bosh islohatchi bo‘lib maydonga chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” 2002-yil 30-maydagi PF-3080-sen farmoni Iqtisodiyotning turli tarmoqlari, boshqaruv, biznes, fan va ta’lim sohalariga axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda aholining turli qatlamlariga zamonaviy kompyuter va axborot tizimlaridan keng foydalanishlari uchun qulay shart-sharoit yaratib

berishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining yuqoridagi Farmonining qabul qilinishi asosiy qadam bo‘ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”, - deb ta’kidlagan edi¹.

Darhaqiqat, hozirgi kunda pedagog uchun professional mahorat nafaqat uning faoliyatini osonlashtiradigan dasturiy-texnik vositalarni o‘zlashtirish va qo‘llash, balki o‘qitishi lozim bo‘lgan fanga oid intellektual va ijodiy masalalarini hal eta oladigan dasturlardan foydalanishga o‘rgatishdan ham iboratdir. Bu ma’noda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga (AKT) oid kurslar tashkil etib, barcha fan o‘qituvchilarini AKTdan o‘quv jarayonida samarali foydalanuvchi mutaxassisiga aylantirish lozimligini inobatga olib XTV tomonidan 23-martda “Umumta’lim mакtablarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasini oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 61-sonli, “Umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish bo‘yicha malakasini oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Xalq ta’limi vazirligining 2012-yil 21-apreldagi 125-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

2011-yil mart oyida chiqarilgan buyruqning ijrosini ta’minalashga erishish zarurdir. Bu buyruqning ijrosini ta’minalash va qo‘yilgan vazifani amalga oshirish uchun informatikadan dars berib kelayotgan malakali yetakchi pedagoglar, mutaxassislar trener sifatida jalb qilinib kompyuter savodxonligiga va har bir ta’lim muassasasi rahbarini, amaliyotchi o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsion

¹Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzaside, 2016-yil 8-dekabr// Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.:O‘zbekiston,2017. 22-b.

texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha kurslar tashkil etib kelinmoqda.

Umumta’lim maktablari davlat ta’lim standartalarining takomillashuvi, o‘quv dasturlarining optimallashuvi hamda darsliklarning yangi avlodini yaratilishi bilan bir qatorda umumta’lim maktablari uchun elektron axborot-ta’lim resurslari yaratilmoqda. Biroq shuni ta’kidlash joizki bugungi kunda ta’lim sohasida yaratilayotgan dasturlarning aksariyati aniq fanlarda foydalanish uchun ishlab chiqilgan. Ammo bunday dasturlar faqat aniq fanlardagina emas, balki til ta’limining ham samaradorligini oshiradi. Shu jihat bilan biz tanlagan mavzu bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Mavzuning o‘rganilishi. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim sohasida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda o‘quvchilar nutqi, intellekti va shaxsiy rivojlanishida AKTning imkoniyatlari yuqori ekanligi ishonarli tarzda dalillanmoqda (I.G. Zaxarova, V.G.Bespalko, S.Peypert, G.K.Selevko va boshqalar), ta’lim jarayonida kompyuterdan foydalanishning psixologik aspektlari (Y.I.Vishtinetskiy, A.O.Krivosheev, Y.S. Polat va boshqalar); AKTning gumanitar sohadagi o‘rni va ahamiyati tadqiq qilinmoqda (B.S.Gershunskiy, I.G.Zaxarova va boshqalar). Bitiruv ishimiz mavzusi doirasida xorijda keng miqqyosdagi ishlar amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin. Emanuela Marchetti, Andrea Valente² tilni o‘rganishda interfaollik va multimodallik: audiokitoblardan foydalanish samarasi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan. N.V.Karayevaning chet tillarini o‘qitishda autentik audio va video materiallardan foydalanish bo‘yicha ishlari, o‘quvchilarning nutqiy malakalarini ribojlantirishning maqbul usullariga doir tavsiyalarini sanab o‘tish mumkin³.

² <https://link.springer.com/> Emanuela Marchetti, Andrea Valente. Interactivity and multimodality in language learning: the untapped potential of audiobooks

³ <https://naukovedenie.ru/> Караева Н.В. Использование аутентичных аудио и видео материалов для повышения мотивации изучения иностранного языка

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Tadqiqot O‘zbek tili kafedrasining “O‘zbek tilshunosligi va o‘zbek tilini o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari ”Ona tili” fani doirasida audiodasturlarni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish, bu boradagi xorij tajribasi bilan tanishish, ona tili uchun audiodasturlarning tajriba-sinov namunasini yaratish, til darslarini audiodasturlar vositasida tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: umumta’lim mакtablarida ona tilini o‘qitish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti ona tilini o‘qitish mazmuni, usullari va “Ona tili” ta’limi vositalari.

Ishning ilmiy yangiligi ona tili fanini audiodasturlar vositasida o‘qitish bo‘yicha tahlillarning amalga oshirilishi; ona tilidan autentik materiallarga qo‘yiladigan talablarning o‘rganilishi; xorijiy adabiyotlarga murojaat qilinishi; ona tili ta’limida audiokurslar tayyorlash yuzasidan takliflarning tayyorlanishi va 6-sinf uchun “Ona tili”dan audiokurs yaratilishidir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Ishimizda bayon etilgan ilmiy-metodik xulosalardan ona tilini o‘qitish sifatini yaxshilashda, “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”, “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari” fanlarining mazmunini belgilashda, shuningdek, talabalar, magistrantlar va o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari tinglovchilariga ona tilini o‘qitish yuzasidan ma’ruzalar o‘qishda, umumta’lim maktablarining ona tili darslarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida o‘tkazilgan professor-

o‘qituvchilar va talabalarning an’anaviy ilmiy-metodik anjumanlarida muallif tomonidan o‘qilgan ma’ruzalarda, e’lon qilingan tezislarda o‘z ifodasini topgan.

Ishni yakunlashda bitiruvchining Nukus shahar Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 44-sonli umumiy o‘rta ta’lim mакtabida o‘tkazgan pedagogik amaliyoti davomidagi va 38-sonli umumiy o‘rta ta’lim mакtabida ona tili o‘qituvchilari, amaliyotchi-talabalar, o‘quvchilar faoliyati bo‘yicha ilmiy-metodik kuzatishlari muhim manba vazifasini o‘tadi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 65 betni tashkil etadi.

BIRINCHI BOB. TIL TA'LIMIDA AUDIODASTURLARDAN

FOYDALANISH TAJRIBASI

1.1. Til o'qitishda autentik materiallar: tarix va zamonaviy yondashuvlar

XX asrda texnika va texnologiya sohalarining jadal rivojlanishi esa ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy o'zgarishlar, ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ta'lif mazmuniga singdirishda peshqadamlikka erishildi. Agarda ta'lif jarayonida o'tgan asrning 30-yillarida pedagogik texnika sifatida usul va vositalar qo'llanilgan bo'lsa, 50-yillarda ta'lif jarayonini texnik vositalar yordamida tashkil etish, 60-yillarda esa o'qitish ishlarini dasturlash an'anasi shakllandi⁴.

XX asrning 50-yillarida ta'lif jarayonida texnik vositalarni qo'llash «ta'lif texnologiyasi» yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lif olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu



borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini «texnologiyalashtirish»ning tashkiliy jihatlarini o'rGANISHGA alohida urg'u

berildi.

Katta yoshdagilar chet tili darslarida audiokassetalarga yozilgan darslarni yaxshi bilishadi. Ular o'quvchi vaqtlarida ana shu kassetalarni olishib, uyida

⁴ Library.ziyonet.uz

magnitofon bor boshqa o‘quvchini topib, yangi kassetaga yozib olib, darslarni tinglashgan. Biroq har safar kassetadan kassetaga yozib ko‘chirish tufayli ularning sifati yomonlashib borgan, hatto eshitishga yaroqsiz holga kelib qolishi mumkin bo‘lgan.

60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish «texnologiya» tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rla boshlandi. Dasturiy ta’lim o‘quvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan «Dasturiy ta’lim va o‘rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita» tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Pedagoglar elektron axborot-ta’lim resursi haqida muayyan tushunchalarga ega bo‘lishlari taqozo qilinadi.

Xo‘sh, elektron axborot-ta’lim resursi deganda nima tushuniladi?

Elektron axborot-ta’lim resursi (EATR) – o‘rganish va ta’lim berish uchun qulay tarzda shakllantirilgan, ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan, turli yoshdagi va ta’lim olish darajasidagi o‘quvchi va o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, ma’lum bir fanni o‘rganish uchun mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan elektron axborot manbalari majmuasidir.

Elektron axborot-ta’lim resursi tuzilishi

- Ma’ruza matni
- Nazariy material
- Nazorat dasturlari
- Media materiallar
- Audio materiallar
- Mashq va masalalar to‘plami, so‘rovnoma
- Qo‘sishma materiallar
- Didaktik to‘plam

- Foto galereya kabilar.

Ma'lum bo'ladiki, kurs ishimizning predmeti hisoblangan audiodasturlar electron axborot-ta'lim resurslari tarkibiga kiradi.

Pedagogikada “mediata’lim” deb yuritiluvchi tushuncha mavjud bo‘lib, u **multimedia vositalari va ulardan ta’lim jarayonida foydalanishni nazarda tutadi**. Multimediya vositalari (multimedia – ko‘pvositalilik) – bu insonga o‘zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalaniib, kompyuter bilan muloqotda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuyidir⁵. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi.

Multimedia axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro‘yxatdan o‘tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalilanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi.

Rivojlangan mamlakatlarda mediata’lim ta’lim sohasining yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiq qilinmoqda va amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin.

Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqt ni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo‘srimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi.

⁵ <http://WWW.Tami.uz/> Mengliyev Sh. Multimedia vositalari va ulardan foydalanish.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarni o‘qitish quyidagi afzalliklarga ega: a) berilayotgan materiallarni chiqurroq, va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati bor; b) ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi; v) ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishish; g) olingan bilimlar kishi xotirasida o‘zoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi.

Mutimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma’lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktor jo‘rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o‘lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta’milot bo‘lishi mumkin. Taqdimotning ma’lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya’ni belgilangan shaklda o‘zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizning saytingiz kaliti ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo‘lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko‘rib, kompaniya saytidan eng yangi ma’lumotni olish mumkin. So‘nggi yillar davomida ko‘plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o‘rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar.

Kompyuter taqdimotlari (Kompyuter vositasida tayyorlangan taqdimotlar) Ma’ruza, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko‘rgazmali namoyish etish vositasi sifatida plakatlar, qo‘llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekrannda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimediali proektorning paydo bo‘lishi ma’ruzachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo‘rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o‘zida mujassam qilgan ko‘rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Ma’lumki, inson ma’lumotning ko‘p qismini ko‘rish (~80%) va eshitish (~15%) organlari orqali qabul qiladi (bu avvaldan aniqlangan va kino hamda televideniyeda undan samarali foydalaniladi). Multimediali texnologiyalar ushbu

muhim sezgi organlarining bir vaqtida ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd-shou, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali insonlarning e'tiborini ko'proq jalb qilamiz. Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Videodan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, ya'ni interfaol bo'lishi mumkin. Multimediali taqdimot ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni ta'minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma'lumotlarni ko'radi va o'zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma'lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

Ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha o'n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho'ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o'lchamli grafikalarni o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay, ko'paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining ouzoqligini ta'minlaydi.

Jahonda birinchi fonagraf (grek tilida fon-ovozi, grafiya – yozib olmoq) – bu ovozni yozib olish va miriqib tinglash asbobidir. Fonograf asbobini dastlab Tomas Edison tomonidan 1877-yil 21-noyabr kuni taqdim etilgan. Edison fonografdan foydalanishning 10 ta asosiy qo'llash sohasini taklif qilgan:

1. Matnni aytib turilishida yozib olish;
2. Ko'zi ojizlar uchun kitob;
3. Notiqlik san'atiga o'rgatuvchi kitob;
4. Musiqani yozib olish va tinglash qurilmasi;
5. Oila a'zolarining ovozlarini yozib olish;
6. Musiqa asbobi va so'zlovchi o'yinchoqlar;
7. So'zlovchi soat;
8. Buyuk shaxslar ovozini yozib olish;
9. Ta'limiy yozuvlar;

10. Telefonga yordamchi qurilma⁶.

2005-yil YUNESCOning bosh ijrochi direktori YUNESCOning 33-bosh sessiyasida 27-oktyabr kunini Butunjahon audiovizual merosi kuni deb e'lon qildi. Audiovizual merosiga – filmlar, radio-teledasturlar, audio hamda video yozuvlari kiradi⁷.

1.2. Til ta'limida audiodasturlarning ahamiyati

Metodistlar o'rgatuvchi audiodasturlar, elektron lingafon kurslari umuman ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun nihoyatda samarali ta'lim texnologiyalari ekanligini ta'kidlaydilar. To'g'ri talaffuzni o'rgatuvchi kompyuter dasturlarida animatsiya yordamida tovushning artikulyatsiya o'rni, usuli ko'rsatiladi, etalon nutq eshittiriladi, o'quvchi va talabaning o'z talaffuzi yozib kiritiladi, so'ngra u adabiy til me'yori bilan taqqoslanadi. Bundan tashqari, audiodasturlar qatoriga «Karaoke» tizimini kiritish mumkin. Undan hordiq chiqarishda yoki biron tadbirni o'tkazishda foydalanish juda qulaydir.

Biznes, boshqarish san'ati bo'yicha kitoblar va audiodasturlar muallifi Brayan Treysi "Измени мышление – и ты изменишь свою жизнь: 12 правил успеха" kitobida shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun uchta kalitga ega bo'lishni tavsiya qiladi: doimo o'qish (mutolaa qilish), doimo audiodasturlarni tinglash, doimo ko'nikmalarni rivojlantirib borish. (<https://books.google.co.uz>)

Stiv Pavlin — amerikalik bloger, yozuvchi, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha treninglar muallifi, tadbirkor, stevepavlina.com veb-sayti yaratuvchisi, «Личное развитие для умных людей» kitobi muallifi ham har kuni ta'limiy audiodasturlarni tinglashni tavsiya qiladi. U har kuni odatda 2 soat atrofida audiodasturlarni tinglagan. Maktabga borish va kelishda, tanaffuslarda, odatiy sayr davomida, transportda, do'konlarni aylanishda, sport bilan shug'ullanishda, ovqat

⁶ infoCOM.uz

⁷ geografiya.uz

tayyorlashda pleerga katta hajmdagi materialni yuklab olib eshitish tufayli u bir necha kollejlar diplomiga ega bo‘lgan, bilimi va qobiliyatini rivojlantirgan. Agar ish faoliyati va audiodasturlarni tinglash birgalikda olib borilsa, tinglash uchun qo‘sishimcha vaqt talab qilinmasligini, doimiy ravishda audio dasturlarni tinglab miyani ijobiy axborot bilan oziqlantirish motivatsiyani oshirishini va optimistik kayfiyatni paydo qilishini alohida ta’kidlaydi. Audio dasturlar foydasi nafaqat ta’lim olishda, balki hayotga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga yordam beradi degan xulosaga keladi. (<http://www.allstevepavlina.ru/productivity-101>)

Ta’lim jarayonida axborotning elektron vositalariga murojaat qilmaydigan pedagogni uchratish qiyin. O‘qituvchilar audio va video materiallarni dars va darsdan tashqari jarayonlarda foydalanish juda samarali ekanligini amalda isbotlashdi. Biroq ularning dars maqsadi va vazifalariga mosligini ta’minalash alohida e’tibor talab qilishini unutmaslik zarur.

Ma’lumki, chet tillarni o‘qitishda audiomateriallardan foydalanish bo‘yicha keng miqyosdagi tajriba maydoni mavjudligini ko‘rish mumkin. Chet tili ta’limida audio-darslarning afzallikkari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ Chet tilida talaffuz qilish ko‘nikmasini takomillashtirish;
- ✓ Grammatika qoidalari va asoslarini eslab qolish;
- ✓ muayyan so‘z yoki iborani qaerda va qachon ishlatish kerakligini tushunish;
- ✓ xorijiy nutqni tushunishni yaxshilash⁸.

Adabiyotlarda audio-darslarning yuqorida sanalgan afzallilaridan tashqari yana bir necha xususiyatlari e’tirof etiladi. Jumladan, audiodarslarning kattalar uchun ham, bolalar uchun qulayligidir. Bundan tashqari, turli darajadagi tayyorgarlikka ega foydalanuvchilar audio- darslar orqali chet tilini o‘rganishlari mumkin. Shuningdek, audio darslarni istalgan vaqtda, har qanday joyda va har qanday qurilmada (gajet) tinglash mumkinligini ta’kidlash kerak. Bunday holda,

⁸ <https://ispeak-school.com/chto-takoe-audio-uroki-anglijskogo-yazyka/>

Преимущества обучения аудированию в английском языке

foydanuvchi vaziyatga ko‘ra audioni to’xtatish yoki takroran tinglash imkoniyatiga ega. Va eng muhimi, audio kurslar tilning barcha nozikliklarini biladigan professional suxandonlar tomonidan tayyorlanadi⁹.

Biroq har qandau audiomaterialni o‘quvchilarga to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdim qilmaslik, foydalanishga tavsiya qilishga shoshilmaslik kerak. Chunki audiodarslarni tanlash bilan bog‘liq bir qancha ko‘rsatmalar mavjudki, ularga amal qilish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Birinchidan, audiokurs o‘quvchi bilim darajasiga mos bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘quvchining tilni o‘rganishga bo‘lgan xohishini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi zarur. Ikkinchidan, axborotning uzatilish sifatiga e’tibor qaratish zarur. Suxandonning nutqi ifodali va yoqimli bo‘lishi zarur. Uchinchidan, audiokursda grammatik topshiriqlar, uy vazifalari ilova qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi¹⁰.

Respublikamizda audiodasturlar va videomateriallarni yaratish va foydalanish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. M.Tuxtamirzaev tahriri ostida yaratilgan “Til ta’limida audiovizual vositalar” metodik qo‘llanmasining yaratilganiga 10 yildan oshgan bo‘lsa, ayni masala sohada olib borilgan tadqiqotlar doirasida asosiy muammoga yondosh masala sifatida tadqiq qilingan. X.Muhiddinova ta’kidlaganidek¹¹, “afsuski, hozirgi kungacha o‘zbek tilini boshqa millat vakillariga o‘rgatish bo‘yicha maxsus audio va videomateriallar majmuasi ishlab chiqilmaganligi, video materiallarni o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llash metodikasi bo‘yicha maxsus tadqiqot ishlari olib borilmaganligi tufayli dars jarayonida bu kabi autentik materiallardan samarali foydalanish kuzatilmayapti”. Demak, audiomateriallarni yaratish va til mashg‘ulotlarida foydalanish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb masala sifatida ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

⁹ O’sha manba.

¹⁰ <https://ispeak-school.com/cto-takoe-audio-uroki-anglijskogo-yazyka/>

Преимущества обучения аудированию в английском языке

¹¹ Muhitdinova X. Til ta’limida videomatnlar qanday uyg’unlashadi. //Til va adabiyot ta’limi. -2015. -№8. –

Vaholanki, til mashg‘ulotlarida audio dasturlarni dars maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda yaratish hamda foydalanish nafaqat ko‘rgazmalilikni ta’minlashga, balki ta’lim jarayonini o‘zgartirishga olib keladi.

Audiomatnlar o‘quvchilarga o‘zbekcha nutqni tinglash, qayta eshitish, takrorlash, birgalikda so‘zlash vositasida o‘z nutqini mustahkamlashga yordam beradi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkrnt davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori prof. Sh.Sirojiddinov o‘zbek tilining xalqaro jozibadorligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlarni sanab o‘tar ekan shunday yozadi: Universitetimizda “xalqaro til markazi” ochilgan bo‘lib, dunyoning turli burchaklaridan o‘zbek tilini o‘rganishga ishtiyoqmand xorijiy fuqarolar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda Koreya va Xitoy davlatlaridan 25 nafar talaba tahsil olmoqda”¹². Shuningdek, prof Sh.Sirojiddinov Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Qozon davlat universiteti (Rossiya); Sukuba universiteti (Yaponiya), Tokio universiteti (Yaponiya), Pekin markaziy milliy universiteti (Xitoy), Shanxay chet tillari universiteti (Xitoy), Lanjou universiteti (Xitoy), Shinjon` ta’lim instituti (Xitoy), Pekin chet tillari instituti (Xitoy), Chet tillar instituti (Koreya), Baku davlat pedagogika universitetida o‘zbek tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligi haqida ma’lumot beradi. Eng quvonarlisi shuki, universitetning “O‘zbek tilining dasturiy ta’mnoti” laboratoriyasida M.Sodiqova va O’.Usmonova muallifligida yaratilgan “O‘zbek tilining orfoepik lug’ati”ning ovozli elektron versiyasini yaratish ustida ish olib boshlangan.

O‘zbek tili kurslarini ochish jahonning juda ko‘p mamlakatlarida yo‘lga qo‘yilayotganligi quvonarli hol, albatta. Biroq o‘zbek tilini ona tili sifatida va xorijiy til sifatida o‘qitish jarayoni metodik jihatdan yaxshi ta’minlanmasligi

¹² <http://WWW.Ma'rifat.uz>.

boshlangan xayrli ishlarga to'siq bo'lishi turgan gap. Xorij talabalari uchun xuddi chet tillarini o'rganish uchun foydalanilayotgandek audio va video materiallar, ta'limiylar yaratilmas ekan, ularning o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishlarini orttirish mumkin emas, deb o'layman.

Bu ayniqsa o'zbek tili korpusini yaratish jarayonini jadallashtirishga ham uzviy bog'lanib ketadi. Bu borada prof. B.Mengliyevning quyidagi fikrlari juda qimmatlidir: "Korpus yaratilishi bo'yicha ingliz va rus tillari yetakchilik qiladi. Korpus lingvistikasi so'nggi o'n yillikda jadal rivojlanayotgan sohaga aylandi. Chunki dunyo tili sanalgan ingliz, nemis, rus, xitoy, arab, ispan, frantsuz tillarining milliy korpuslaridan tashqari, bu tillarning ko'pida gazetalarning komp'yuter korpusi, multimediali korpus, maxsus matnlar korpusi, og'zaki va yozma korpus, umummilliy va mualliflik korpuslari ham yaratildi.

Shuningdek, belarus, polyak, polyak-ukrain, chech, slovak milliy korpuslari, serb, xorvat, bosniya, bolgar, bolgar-rus, makedon, shotland, ivrit, niderland, niderland-frantsuz, shved, dat, norveg, island, farer, o'rta asr frantsuz tili, ispan, ital`yan, portugal, rumin, litva, latish, grek, sharqiy arman, osetin, alban, hind, sigan, xett, fin, ural tillari, eston, veps, venger, udmurt, gruzin, ingliz-gruzin, lezgin, turk, tatar, boshqird, qrim-tatar, qalmiq, buryat, mo'g'ul, arab, amxar, yapon, qadimiy yapon, baman, tojik, esperanto tillari korpuslari ham mavjud"¹³.

Nazarimizda, o'zbek tili korpusi uchun uning bir qismi hisoblanadigan og'zaki korpusni yaratish uchun bizning bitiruv ishimizda ilgari surilgan g'oyalar muayyan darajada zarur deb hisoblaymiz.

¹³ <http://WWW.Ma'rifat.uz>.

**IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILIDAN O'RGATUVCHI
AUDIODASTURLAR ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI**
**2.1. 6-sinf “Ona tili” darsligiga ilova qilinadigan audiokursning tuzilishi
va mazmuni**

Bugungi kunda eng ommabop mavzu – multimedia loyihasini yaratish. Bu yerda har kim o‘zining bor ijodiy o‘ziga xosligini, aql-zakovatini, bilimini, nozik didini namoyon qilishi mumkin. Afsuski, taqdimot tayyorlash va ma’lumotlar bazasi yaratish bilimlariga ega bo‘lmasdan multimediali loyiha tayyorlab bo‘lmaydi, shunga qaramasdan maxsus dasturiy vositalar borki, ularning ishslash texnologiyasini o‘rganib, ko‘pfunksiyali ishslash vositalariga ega bo‘lish mumkin.

Ta’lim texnologiyasi nazariyasining umumiyligi asoslari mohiyati xususida so‘z yuritish uchun «ta’lim texnologiyasi» tushunchasining tub ma’nosini anglash talab etiladi.«Texnologiya» yunoncha so‘z bo‘lib, «techne»-mahorat, san’at hamda «logos»-tushuncha, ta’limot so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan. «Ta’lim texnologiyasi» tushunchasi esa lug‘aviy jihatdan (inglizcha «an educational technology») ta’lim (o‘qitish) jarayonini yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etish borasida ma’lumotlar beruvchi fan (yoki ta’limot) ma’nosini anglatadi.

O‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish (maxsus tadqiqotlar asosida a eshitish natijasida berilgan axborotning 25%, ko‘rilgan axborotning 33%, ko‘rish va eshitish natijasida- 50%, aktiv faoliyat natijasida - 75% miqdori o‘zlashtiriladi).

Ta’lim berish maqsadida multimedia mahsulotini Microsoft Office dasturlari asosida ishlab chiqish mumkin, materialni tayyorlash uchun esa PhotoShop (rasmlarni qayta ishslash), Adobe Premier yoki **Vstudio2** (videokliplarni qayta ishslash), **Stoik Software** (tasvirlarni qayta ishslash va morfing yaratish), **fonograf Windows 95** (ovozi yozish va uni qayta ishslash uchun) kabi qo‘srimchalar.

dasturlardan foydalilanildi¹⁴.

Audioilovalar	Ovozli fayllarni o‘quvchi qurilmalar – raqamli tovushlar bilan ishlovchi dasturlar. Raqamli tovush – bu elektrik signal amplitudasining diskret sonlar bilan ifodalanishi.
---------------	--

Endi quyida audiodastur ishlab chiqish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz. Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi, ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Rejalashtirish.
2. Elementlarni ishlab chiqish.
3. Dasturiy ta’milot.
4. Tekshirish.
5. E’lon qilish.
6. Reklama.
7. Kuzatuv.

Ushbu bosqichlarga mos ravishda “**Ona tili. 6-sinf**” audiodasturini yaratishni boshlaymiz.

Rejalashtirishbosqichida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

1. Multimedia ilovasi nima uchun mo‘ljallangan?

“Ona tili. 6-sinf” audiodasturi ta’lim jarayonida ta’lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tushunish va xotirada saqlab qolishga yordam beradi. O‘rganilgan ma’lumotlarni takrorlash va keyingi bosqich (qadam)ga o‘tish uchun tayanch vazifasini bajaradi.

2. Multimedia ilovasi qaysi auditoriyaga yo‘naltirilgan?

“Ona tili. 6-sinf” audiodasturi, asosan, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Shuning bilan bir qatorda abituriyentlar va kollej o‘quvchilari

¹⁴ <http://WWW.Tami.uz/> Mengliyev Sh. “Multimedia ilovalarining turlari”

ham kirish imtihonlariga tayyorlanishda, o‘qituvchilar esa takrorlash darslarida foydalanishlari mumkin.

3. Multimedia ilovasiga qanday ma’lumot joylashtiriladi?

Dasturda 6-sinf ona tili darsligidagi barcha grammatik qoidalar tartib bilan jamlangan va qoidalarga mos misollar bilan to‘ldirilgan.

4. Auditoriya (foydalanuvchilar) bilan qayta aloqa qay tartibda amalga oshiriladi?

Ushbu dasturda aloqa faqat bir tomonlama olib boriladi.

Elementlarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Navigatsiya tizimini ishlab chiqish:

Dasturning navigatsiya (Navigatsiya – ko‘chish, harakatlanish. Internetga tegishli ravishda ishlataliganda sahifadan sahifaga o‘tishni, ya’ni ularning ketma-ket ko‘rilishini bildiradi¹⁵) tizimi ishlab chiqiladi. Bunda **SunRav Book Editor** programmasiga kiriladi. “Содержание” qismidagi “новый раздел”ni “Bosh sahifa” deb nomlab olamiz. Keyin “Главная” bo‘limiga kirib “новый подраздел”ni tanlaymiz. Yangi yaratilgan “раздел”ni “**Mavzular**” deb nomlab olamiz. Yuqoridagi harakatlarni takrorlab, yana bir yangi “раздел” yaratamiz va uni “**Dastur haqida**” deb nomlaymiz.


Demak, bizda “Bosh sahifa”dan darslarga va dastur haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘limlarga kirish imkoniyati ishlab chiqildi.

2. Taqdimot uchun WEB sayt yoki slaydlarning dizaynini ishlab chiqish. (multimedia ilovalarini joriy etishning har ikki holati uchun ham keyingi o‘rinlarda “sahifa” deb yuritiladi).

1. BMTTDning O‘zbekistonidagi vakolatxonasi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug’ati.
– T.: 2010. 60-b.

Dastlab, audiodasturni qaysi dastur orqali yaratish aniqlab olinadi. Hozirgi kunda ko‘plab imkoniyatlarga ega audiodastur yaratishga mo‘ljallangan bir qator dasturlar ishlab chiqilgan. Multimedia ilovalarini ishlab chiqishda turli rang va fonda tasvirlangan obyyektlar insonlar tomonidan turlicha idrok qilinishini hisobga olish kerak. Vizual axborotlarni tashkil etishda predmetlarning fonga nisbatan kontrasti muhim rol o‘ynaydi. Kontrastning ikki turi mavjud: to‘g‘ri va teskari. To‘g‘ri kontrastda predmetlar va uning tasvirlari fonga nisbatan to‘qroq, teskari kontrastda esa ochroq bo‘ladi. Multimedia ilovalarida odatda har ikki turidan foydalaniladi, turli kadrlarda alohida va bitta kadr doirasida birgalikda. Ko‘p hollarda teskari kontrast ustunlik qiladi.

Dasturning komputer uchun mo‘ljallangan versiyasi uchun SunRav Book Editor dasturini tanlandik.



2.1.-rasm. SunRav Book Editor dasturining ko‘rinishi

3. Sahifalarni to‘ldirish uchun matn va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash (jadvallar, grafiklar, rasmlar va boshqalar).

Bu bosqichda dastlab 6-sinf “Ona tili” darsligidagi qoidalar Word matn muharririda tayyorlab olinadi. Ayrim mavzular biriktiriladi. Tinglovchi qoidani to‘liq tushunib olishi uchun ayrim grammatik qoidalar (so‘z tarkibi, asos va qo‘sishimchalar, so‘z tarkibida tartib va shu kabi mavzulardagi) misollar bilan to‘ldiriladi. Bundan tashqari 6-sinf ona tili darsligidagi “So‘z tarkibidagi tartib” mavzusida shartli belgilarni berilgan:

BILIB OLING. So‘zning ma’noli qismlari ma’lum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha bo‘ladi: asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi. Ularni shartli belgilar orqali shunday ko‘rsatish mumkin:

asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi +
+ sintaktik shakl yasovchi.

2.2.-rasm. So‘zning ma’noli qismlari haqida ma’lumot

Bilib oling. So‘zning ma’noli qismlari ma’lum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha bo‘ladi: asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi: *Fazo + gir + lar + ni*

Ularni shartli belgilar orqali shunday ifodalash mumkin:

asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi +
+ sintaktik shakl yasovchi.

Buni tinglovchi idrok qilishi qulay tarzda o‘qish zarur. Biz bu vaziyatda quyidagicha o‘qishni ma’qul ko‘rdik:

Asos tepasiga yoy (yarim doira) belgisi, so‘z yasovchi qo‘srimchalarning tepe qismiga uchburchak belgisi, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘srimchalar tagiga bir to‘g‘ri chiziq belgisi, sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar tagiga esa to‘lqinsimon chiziq chiziladi.

Bundan tashqari “Kasr sonlar. Ularning yasalishi va imlosi” mavzusida ham matematik ifodalar keltirilgan:

BILIB OLING. Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar *kasr son* deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism ko‘pincha chiqish kelishigida keladi: *o‘ndan bir, uchdan ikki*.

ESDA TUTING. $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{4}$, $\frac{1}{8}$ ifodalarini *ikkidan bir, to‘rtidan bir, sakkizdan bir* tarzida, shuningdek, *yarim, chorak, nimchorak* tarzida o‘qiladi.

2.3.-rasm. Kasr son haqida haqida ma’lumot

Ushbu holatda ham tinglovchining idrok qilishi, tasavvur qilishi uchun matnni o‘qishda o‘ziga xoslik taqozo qilinadi:

Esda tuting. Suratda bir mahrajda ikki ifodasi ikkidan bir yoki yarim, suratda bir mahrajda to'rt ifodasi to'rtdan bir yoki chorak, suratda bir mahrajda sakkiz ifodasi sakkizdan bir yoki nimchorak tarzida o'qiladi.

Biz matnni quyidagi tarzda tayyorlab oldik.

Jami:

Matn:	4 ta
Asos va qo'shimchalar:	6 ta
Fe'l:	24 ta
Ot:	9 ta
Sifat:	8 ta
Son:	10 ta
Ravish:	9 ta

Mavzu: Matn va mavzu

Bilib oling. Ma'lum bir fikrni batafsil ifodalash uchun gaplarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bog'lab matn tuzamiz. Mazmun va grammatik jihatdan bog'langan, bir mavzuni ifoda etuvchi gaplar matnni hosil qiladi.

Esda saqlang. Mavzu matndagi asosiy fikrning nima haqida ekanligidir. Shundan kelib chiqqan holda u matnning sarlavhasi ham bo'lishi mumkin.

O'tkir Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida „Ona tili” mavzusidagi ushbu matn keltirilgan:

Ona tili

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi... O'lim oldida onasini ona tilida yo'qlaydi...

Mavzu: Matn turlari. Hikoya matni

Bilib oling. Matn turli maqsadlar bilan tuziladi. Masalan: muayyan predmet yoki voqeа-hodisalar haqida xabar berish, hikoya qilish, ularning ta'rif-tavsifini berish, ya'ni tasvirlash, ularni muhokama qilish, ya'ni mulohaza yuritish. ana shunga ko'ra, matnlarning quyidagi turlari farqlanadi: 1. Hikoya matni. 2. Tasviriy matn.

3. Muhokama matni.

Esda saqlang. Hikoya matnida muayyan predmet yoki voqeа-hodisa haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi. O'tkir Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida „Qaldirg'och” mavzusidagi ushbu matn keltirilgan:

Qaldirg'och

E'tibor berganmisiz: qaldirg'ochlar fayzsiz, noahil xonadonga hech qachon in qurmaydi.

Goho qaldirg'och odamdan aqlli roqmikin, deb o'ylab qolaman.

Mavzu: Tasviriy matn

Bilib oling. Muayyan predmet yoki voqeа-hodisalar ta'riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi.

Esda saqlang. Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko‘proq qo‘llanadi. O‘tkir Hoshimovning „Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobida “*Paxtakor*” mavzusidagi ushbu matn keltirilgan:

Paxtakor

Ko‘ngli – paxtasidek oppoq. Fe’li – paxtasidek yumshoq. Mehri – paxtasidek qaynoq... faqat bitta aybi bor: “paxta qo‘yish”ni bilmaydi.

Mavzu: Muhokama matni

Bilib oling. Muayyan predmet yoki voqeа-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matni hisoblanadi.

Esda saqlang. Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko‘proq qo‘llanadi. *O‘tkir Hoshimov „Komputer“ deb nomlangan quyidagi matni muhokama matnga misol bo‘la oladi:*

Kompyuter

Olimlar kompyuterni inson miyasidan andaza olib yaratgan. O‘ylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi... Faqat kompyuterning insondan bitta ustunligi bor: keraksiz axborotni xohlagan paytda xotirasidan o‘chirib tashlashi mumkin... Odam esa yomon xotiralarni miyasidan o‘chirib tashlolmay aziyat chekadi...

Mavzu: Morfologiya kirish

Siz so‘zlarning atash ma’nosi, bir ma’noliligi va ko‘p ma’noliligi, shakldoshligi, ma’nodoshligi, zid ma’noliligi kabi tushunchalar haqida tasavvurga egasiz.

So‘zlarning borliqdagi ma’lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning atash ma’nolari yoki lug‘aviy ma’nolari deyilishini, tilshunoslikning atash ma’nolarni o‘rganuvchi bo‘limi esa leksikologiya ekanligini bilasiz.

So‘zlar atash ma’nosi bilan birga ma’lum grammatik ma’no va uni ifodalovchi shaklga ham ega bo‘ladi. Masalan, olmalarni so‘zi «mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma’nolari bilan birga «ko‘plik», «kelishik» ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi ko‘plik shakli (-lar) hamda kelishik shakli (-ni) ga ham ega. «Mevali daraxt» va «olma daraxti mevasi» ma’nolari bu so‘zning atash ma’nosi, qolgan ma’nolar esa grammatik ma’nolari sanaladi. Har qanday grammatik ma’no ma’lum grammatik shakl orqali ifodalanadi. Grammatik ma’nolarni ifodalovchi vositalar grammatik shakl hisoblanadi. So‘zlarning grammatik ma’nolari va ularni ifodalovchi grammatik shakllarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi morfologiya sanaladi. Morfologiya yunoncha morph — «shakl», logos — «so‘z», «ta’limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib, so‘z shakllari haqidagi ta’limot demakdir. Ko‘rinadiki, leksikologiya bilan morfologiya o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. Har ikkisida so‘z o‘rganiladi. Ular so‘zning qaysi tomonini o‘rganish bilan farqlanadi. Leksikologiya so‘zning atash ma’nosini, morfologiya esa uning grammatik ma’nosini va bu ma’nolarni ifodalovchi vositalarni o‘rganadi.

Mavzu: So‘z tarkibi. Asos va qo‘shimchalar

Bilib oling. So‘z tarkibi asos va qo‘shimchalardan iborat. Masalan: *Xabarsiz so‘zida xabar asos, -siz qo‘shimcha. Bolalarni so‘zida bola-asos, -lar va -ni qo‘shimchadir.*

Bilib oling. So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi.

Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma’no yuklaydigan, shuningdek, so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismiga qo‘shimcha deyiladi. Masalan: *Bog‘bon so‘zida bog‘ asos, -bon qo‘shimcha. topilgan so‘zida top asos, -il, -gan qo‘shimchadir.*

Mavzu: Qo‘shimchalar tasnifi

Bilib oling. Qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: a)so‘z yasovchi qo‘shimchalar, masalan, oq so‘ziga –la qo‘shimchasining qo‘shilishidan <<oq rangga kiritish>> ma’noli yangi so‘z yasalgan;

b) Shabl yasovchi qo‘shimchalar, masalan, -lar qo‘shimchasi gul asosiga qo‘shilib, uning ma’nosidan boshqa yangi ma’no yasamaydi, gulning birdan ortiq ekanligini bildiradi.

Mavzu: So‘z yasovchi qo‘shimchalar. Tub va yasama so‘zlar

Bilib oling. Asosga qo‘shilib, yangi ma’no hosil qiluvchi qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar deyiladi. *Masalan, do‘ppi+do‘z, ser+qatnov, foyda+li, taqsim+la*

Bilib oling. Tarkibi asos va yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linmaydigan so‘zlarga tub so‘zlar deyiladi. Masalan: tosh, temirga, quyoshimiz.

Asosga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali hosil qilingan yangi asos sodda yasama so‘zlar deyiladi. Masalan, toshloq, temirchi, temirchilik, serquyosh.

Esda tuting. So‘zning qo‘shimchalarsiz qismi asos sanaladi. Bir umumiylasosga ega bo‘lgan so‘zlar asosdosh so‘zlar sanaldi: Tashvishli, sertashvish, tashvishlanmoq kabi.

Mavzu: Shabl yasovchi qo‘shimchalar va ularning tasnifi

Bilib oling. Asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklash yoki o‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘shimchalarga shabl yasovchi qo‘shimchalar deyiladi: qizcha – ushbu so‘zdagi –cha qo‘shimchasi so‘zga kichraytirish ma’nosini yuklamoqda:

kitobni o‘qi – ushbu birikmada tushum kelishigi qo‘shimchasi –ni so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladi.

Esda tuting. Shabl yasovchi qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra ikki tur bo‘ladi: a)lug‘aviy shabl yasovchilar; b) sintaktik shabl yasovchilar.

Bilib oling. Asosga qo‘shilib, uning ma’nosiga qo‘shimcha ma’no yuklovchi qo‘shimchalar lug‘aviy shabl yasovchi qo‘shimchalar deyiladi. Ularga ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qarashlilik, o‘rin-joyga xoslik; sonning ma’noviy guruhlarini, sifat va ravish darajalarini; fe’lning bo‘lishsizlik, nisbat, vazifa shakllarini yasovchi qo‘shimchalar kiradi.

O‘zi qo‘shilayotgan so‘zni boshqasiga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘srimchalar sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar yoki munosabat shakllari deyiladi. ularga egalik, kelishik, shaxs-son, zamon, mayl va boshqa qo‘srimchalar kiradi.

Mavzu: So‘z tarkibida tartib

Bilib oling. So‘zning ma’noli qismlari ma’lum tartibga ega. Ularning joylashuvi quyidagicha bo‘ladi: asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi + sintaktik shakl yasovchi. *Fazo + gir + lar + ni*

Ularni shartli belgilar orqali shunday ifodalash mumkin:

asos + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl yasovchi +
+ sintaktik shakl yasovchi.

Asos tepasiga yoy (yarim doira) belgisi, so‘z yasovchi qo‘srimchalarning tepe qismiga uchburchak belgisi, lug‘aviy shakl yasovchi qo‘srimchalar tagiga bir to‘g‘ri chiziq belgisi, sintaktik shakl yasovchi qo‘srimchalar tagiga esa to‘lqinsimon chiziq chiziladi.

Mavzu: To‘plam va tasnif

Bilib oling. O‘rganish uchun olingan turli narsa, voqeа-hodisalar yig‘indisi to‘plam deyiladi. To‘plamni o‘xhash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo‘lish tasnif hisoblanadi. *Terak daraxti, olma daraxti, chinor daraxti, behi daraxti, majnuntol daraxti so‘zlari daraxt to‘plamni tashkil qiladi. Ushbu daraxtlarni mevali va mevasiz daraxtlarga ajratish tasnifdir.*

Mavzu: So‘z turkumlari

Bilib oling. So‘zlarning so‘rog‘i va qanday umumlashgan ma’no ifodalashiga ko‘ra guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumlari hisolanadi.

So‘z turkumlar ma’no va vazifasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:
1. mustaqil so‘zlar (fe’l, ot, sifat, son, olmosh, ravish). 2. yordamchi so‘zlar (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama). 3. alohida olingan so‘zlar (undov so‘zlar, taqlid so‘zlar, modal so‘zlar).

Bilib oling. Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, biror gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi: fe’l, ot, sifat, son, olmosh va ravishlar mustaqil so‘zlardir.

Mavzu: Fe’l. Harakat va holat fe’llari

Bilib oling. Nima qilmoq?, nima bo‘lmoq? so‘roqlariga javob bo‘lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so‘z turkumi fe’l deyiladi: *o‘qimoq, yozmoq, yugurmoq*

Esda saqlang. Fe’llarda anglashilgan harakat va holat ma’lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi. *Bulbul sayradi gapida bulbul harakat bajaruvchisi hisoblanadi.*

Bilib oling. Fe’lllar nimani atab kelishiga ko‘ra harakat fe’llari va holat fe’llariga bo‘linadi.

Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergen harakatni bildiruvchi fe’llar harakat fe’llari hisoblanadi: *bormoq, qimirlamoq, supurmoq*

Shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish jarayonini ifodalovchi fe’llar esa holat fe’llari sanaladi: *jimirlamoq, sarg‘aymoq, tovlanmoq*

Mavzu: O‘timli va o‘timsiz fe’llar

Bilib oling. Tushum kelishigidagi so‘zlar bilan bog‘lanadigan fe’llar o‘timli fe’llar, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan fe’llar o‘timsiz fe’llar sanaladi.

O‘qimoq, yozmoq, pishirmoq fe’llari o‘timli fe’llar, yotmoq, uxlamoq, joylashmoq fe’llari o‘timsiz fe’llardir.

Mavzu: Fe’l nisbatlari

Bilib oling. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe’l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Masalan, supurdi fe’lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, supurildi fe’lida noaniq, supurishdi fe’lida birdan ortiq, supurtirdi fe’lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan.

Esda saqlang. Nisbat shakllari fe’lning asos qismidan keyin qo‘shiladi. Fe’l 5 ta nisbat shakliga ega: 1) aniq nisbat; 2) o‘zlik nisbati; 3) orttirma nisbat; 4) majhul nisbat; 5) birgalik nisbati.

Bilib oling. Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat yoki holatni bildirgan fe’l shakli aniq nisbat deyiladi. *Bolalar ishga kirishib ketdilar. Harakat bajruvchisi bolalar.*

Mavzu: O‘zlik nisbati

Bilib oling. Bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe’l shakli o‘zlik nisbati deyiladi. O‘zlik nisbati shakli fe’l asosiga -(i)n, -(i)l qo‘shimchalarining qo‘shilishi bilan hosil bo‘ladi. Masalan: *Qorong‘i jarga nur yog‘ildi.*

Esda saqlang. Unli bilan tugagan fe’l asosiga o‘zlik nisbatining -n yoki -l undosh bilan tugagan fe’l asosiga esa -in yoki -il qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Mavzu: Majhul nisbat

Bilib oling. Bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan harakat yoki holatni ifodalovchi fe’l shakli majhul nisbat deyiladi. majhul nisbat shakli unli bilan tugagan fe’l asosiga -n, -l; undosh bilan tugagan fe’l asosiga esa -in, -il qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Masalan: *Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e’tibor berilmoqda.*

O‘zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat yoki holatning bajaruvchisi nuqtayi nazaridan farq qiladi. o‘zlik nisbatida harakat-holat bajaruvchining o‘zi ustida amalga oshadi, majhul nisbatda esa bajaruvchi noma’lum bo‘ladi. Solishtiring: tarandi—taraldi, kiyindi —kiyildi.

Mavzu: Orttirma nisbat va qo‘shimchalarining ishlatalishi

Bilib oling. Bajaruvchining ta’siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe’l shakllari orttirma nisbat shakli deyiladi. orttirma nisbat shakllari -t, -dir (-tir), -giz(-kiz), -qiz, (-g‘iz), -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz kabi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: *Rota yana bir qator bo‘lib yo‘lida davom ettirdi.*

Bilib oling. Orttirma nisbatning -t qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan, to'qit, ishlat.

Jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'l asoslariga (kel so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin -dir, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga esa -tir qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: *yozdir, ektir*

-ir, -ar, -iz qo'shimchalari undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi. Masalan: *shoshir, chiqar, oqiz*.

-giz, -g'iz qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -kiz, -qiz qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi. Masalan: *yutqiz, ketkiz, yurgiz, turg'iz*.

Esda saqlang. Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi bordan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Masalan, o'qit —o'qittir, to'ldir —to'ldirg'iz, yozdir—yozdirtir. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi kuchayadi.

Mavzu: Birgalik nisbati

Bilib oling. Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli birgalik nisbati deyiladi.

Birgalik nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asosiga -sh, undosh bilan tugagan fe'l asosiga esa -ish qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: ishslashdi, kelishdi.

Mavzu: Fe'llarning vazifa shakllari

Bilib oling. Fe'lllar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Buning uchun fe'l maxsus shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'lning vazifa shakllari sanaladi.

Fe'llarning to'rt vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l shakli (o'qidi); 2) harakat nomi shakli (o'qimoq, o'qish); 3)sifatdosh shakli (o'qigan, oqar); 4) ravishdosh shakli (o'qib, kelgach).

Mavzu: Harakat nomi va uning yasalishi

Bilib oling. Fe'lning otga xoslangan shakli harakat nomi deyiladi va fe'l asoslariga -(i)sh, -(u)v, -moq qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi: o'qish, *qidiruv, yuvmoq*

A yoki i unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga -v qo'shimchasi qo'shilganda, a unlisi o ga, i unlisi u ga aylanadi va shunday yoziladi. Masalan, ishla – ishlov, tani —tanuv.

Esda saqlang. Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ular bajaradigan gap bo'laklari vazifasida keladi. Masalan: *Chiroqli yozishni o'rgan! - to'ldiruvchi. Yozuvning yomon emas. -ega.*

Mavzu: Sifatdosh va uning zamon shakllari. Bo'lishli bo'lishsiz shakli

Bilib oling. Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. sifatdoshlar fe'l asoslariga -gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: *O'qigan talaba, bajaradigan ish*

Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o‘xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg‘un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o‘zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Solishtiring: *katta (sifat) daryo, oqar (sifatdosh) daryo*.

Bilib oling. Sifatdoshlar fe’l shakli bo‘lganligi uchun fe’lga xos bo‘lgan zamon, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat ma’nolarini ifodalaydi. Takomillashtirgan guruh – ushbu birikmadagi sifatdosh o‘tkan zamon, bo‘lishli, birgalik nisbatidagi sifatdoshdir.

Bilib oling. Sifatdoshning -gan (-kan, -qan) qo‘shimchasi shaxs-narsalarning o‘tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydi.

Kuylagan o‘quvchi

Bu qo‘shimcha unli bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilib, -gan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilib, -kan holida talaffuz qilinsa ham, -gan yoziladi: *ko‘chgan, o‘sgan*

Jarangsiz q undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda, -qan, k undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda, -kan holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *tiq—tiqqan, tik —tikkan*

Jarangli g‘ undoshi bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilganda, -qan holida talaffuz qilinsa ham -gan yoziladi: *tug‘ -tug‘gan*

Bilib oling. Hozirgi zamon sifatdoshi fe’l asoslariga -(a)yotgan qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: *qurilayotgan bino*

Kelasi zamon sifatdoshi fe’l asoslariga -ydigan, -adigan, -(a)r qo‘shimchalarini qo‘shish bilan yasaladi: *chiziladigan tasvir*

Bilib oling. Sifatdoshning bo‘lishsiz shakli sifatdosh hosil qiluvch qo‘shimchalardan oldin -ma qo‘shimchasini keltirish orqali yasaladi: *aytgan — aytmagan, oqayotgan — oqmayotgan, o‘qiydigan — o‘qimaydigan*. -(a)r qo‘shimchasi yordamida yasalgan shakllarning bo‘lishsiz shakli -mas qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi. *Oqar suv-oqmas suv*

Mavzu: Ravishdosh va uning ma’no turlari

Bilib oling. Fe’lning ravishga xoslangan shakli ravishdosh deyiladi.

Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o‘xshaydi. ravishdosh ham ravish kabi fe’lga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi. Solishtiring: *piyoda (ravish) keldi, shoshilib (ravishdosh) keldi*.

Bilib oling. Ravishdoshning -(i)b, -a// -y shakllari ko‘proq harakatning holatini, ba’zan payt, sababini bildiradi: *Jo‘shib gapirmoq-holat ma’nosida, kelib so‘radi-payt ma’nosida, qidirib keldi —sabab ma’nosida*

-gancha (-kancha, -qancha) shakli holatini bildiradi: *o‘ylagancha o‘tirardi*

-gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) shakllari paytini ifodalaydi: *quyosh botgancha tugatdi*

-gani (-kani, -qani, -gali) shakli maqsadini anglatadi: *yutgani keldi*

Mavzu: Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosi

Bilib oling. Unli va jarangli undoshlar bilan tugagan fe'l asoslariga ravishdoshning -gach, -guncha, -gancha, -gani qo'shimchalari qo'shiladi: *olgani keldi*

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga bu qo'shimchalar qo'shilganda, -kach, -kuncha, -kancha, -kani shaklida talaffuz qilinsa ham, -gach, -guncha, -gancha, -gani tarzida yoziladi: *esgach, pishguncha*

Bu qo'shimchalar faqat k undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shib, -kach, -kuncha, -kancha, -kani holida; q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shib, -qach, -quncha, -qancha, -qani shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: ekkani, chiqquncha

Mavzu: Ko'makchi fe'llar va uning ma'nolari

Bilib oling. Ravishdoshning -a//y, -(i)b shakllariga qo'shib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanishi, davom etishi, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi boshlamoq, olmoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq singari fe'llar ko'makchi fe'llar hisoblanadi: *yoza boshladi – ish harakatning endi boshlanganligini ifodalaydi*.

Esda saqlang. Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh yetakchi fe'l hisoblanadi. Ko'makchi fe'l faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi: *ayta oldi birikmasida ko'makchi fe'l. Daftarni oldi birikmasida yetakchi fe'l.*

Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi olmoq (xatni olmoq), tugatmoq (o'qishni tugatmoq), turmoq (o'rnidan turmoq), tashlamoq (qog'oz tashlamoq) fe'llaridan farq qiladi.

Bilib oling. Ravishdoshning -a//y shakliga qo'shiluvchi boshlamoq ko'makchi fe'li harakatning boshlanishini ifodalaydi: *pishira boshlamoq*.

Olmoq ko'makchi fe'li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydi: *yordamlasha olmoq*

yotmoq, yurmoq, turmoq ko'makchi fe'llari ravishdoshning -(i)b shakliga qo'shib, harakatning davomiyligini bildiradi: *to'lib-toshib yotibdi, aytib turmoq, o'qib yurmoq*

yubormoq, tashlamoq, qo'ymoq ko'makchi fe'llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi: *aytib yubormoq, to'qib tashlamoq, bajarib qo'ymoq*

chiqmoq ko'makchi fe'li harakatning to'la yakunlanganini bildiradi: *so'rashib chiqmoq*

Bilib oling. Nisbat va bo'lishsizlik shakllari yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin: *to'xtatib qo'yishdi-nisbat qo'shimchalari, aytmay-qo'ymaydi – bo'lishsizlik qo'shimchasi*.

Zamon, shaxs-son qo'shimchalari faqat ko'makchi fe'llarga qo'shiladi: *yiqilib tushdi*

Mavzu: Fe'llarning yasalishi

Bilib oling. -la -a qo'shimchalari ot, sifat, undov so'zlardan fe'l yasaydi: *o'yla, qiyina, guldura*

-(a)y, -i, -sira, -sa qo'shimchalari ot va sifatlardan, ba'zan ravishlardan fe'l yasaydi: *kuchay, tinchi, suvsə, gümənsira, kamay*

--(a)r qo'shimchasi sifatlardan fe'l yasaydi: *qisqar, eskir*

-illa, -ira qo'shimchalari taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *lovvilla, yarqira*

-sira qo'shimchasi sen, siz olmoshlaridan ham fe'l yasaydi: *sensira*

Bilib oling. Fe'l yasovchi -a qo'shimchasi o'yin, qiyin kabi ikki bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, bu so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi i unlisi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *o'yna, qiyina kabi*

Fe'l yasovchi -ay qo'shimchasi past, sust so'zlariga qo'shilganda, bu so'zlar oxiridagi t talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *pasay, susay, ulg'ay*

-illa qo'shimchasi tarkibida u unlisi yo v undoshi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, -ulla tarzida aytildi va shu holda yoziladi: *guvvulla, shovulla*

Mavzu: Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari

Bilib oling. Fe'lllar tuzilishiga ko'ra to'rt xil bo'ladi: a) sodda fe'lllar; b) qo'shma fe'lllar; d) juft fe'lllar; e)takroriy fe'lllar.

Sodda fe'lllar bir asosdan tarkib topadi. Sodda tub fe'lllar asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan: *qurmoq, yurmoq, ketmoq*.

Sodda yasama fe'lllar so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *shod - shodlanmoq, yangi-yangilamoq, gap-gapirmoq, guv-guvullamoq, tez-tezlamoq*.

Bilib oling. Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'lllar qo'shma fe'lllar sanaladi. Masalan: *sayr etmoq, taq etmoq, olib kelmoq, bunyod qilmoq*.

Esda saqlang. Qo'shma fe'lllar ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov va taqlid so'zlarga qil, et, bo'l singari so'zlarni, fe'l shakllariga kelmoq, ketmoq singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi. *Masalan: tarbiya qilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, yaxshi chiqmoq, kim bo'lmoq, dod solmoq, chirs etmoq kabi*.

Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. *Masalan: borib keldi (ham bordi, ham keldi), ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanilmaganda, ko'makchi fe'lli so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan: o'qib chiqdi (o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi).*

Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

Bilib oling. Ikki fe'l juftligidan tashkil topgan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi va gapda bitta gap bo'lagi vazifasida keluvchi fe'lllar juft fe'lllar sanaladi: *yayrab-yashnamoq*

Juft fe'lllar ish-harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ifodalaydi. Juft fe'l qismlari doimo chiziqcha bilan yoziladi: *yelib-yugurmoq*

Oldi-berdi, bordi-keldi kabi juft so'zlar ot turkumiga o'tgan so'zlar hisoblanadi.

Asosni takrorlash bilan hosil bo‘lgan juft fe’llar takroriy fe’llar ham deyiladi. Takroriy fe’l qismlari ham chiziqcha bilan yoziladi: *ishlay-ishlay, kutakuta, o‘yladi-o‘yladi kabi*.

Mavzu: Fe’lning ma’noviy guruhlari

Bilib oling. Fe’llar qanday harakat-holatni ifodalashiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Nutqiy faoliyat fe’llari: gapirmoq, so‘zlamoq

Aqliy faoliyat fe’llari: o‘yladi, fikrladi

Jismoniy faoliyat fe’llar: yugurmoq, kurashmoq

Holat fe’llari: isitmalamoq, qizarmoq

Mavzu: Fe’lning munosabat shakllari

Bilib oling. Fe’l asoslariga qo‘shilib, gapda kesim vazifasida qo‘llanilishiga xoslovchi shakllar fe’llarning munosabat shakllari hisoblanadi. Fe’llarning zamon, mayl, shaxs-son qo‘shimchalarini munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo‘lgan har qanday fe’l gapda kesim vazifasida keladi: *Men kitobni o‘qidim*.

Yuqoridagi ma’no va shakllardan xoli bo‘lgan fe’l asosi fe’lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl -moq qo‘shimchasi yordamida ifodalanadi: *o‘qimoq, ishlaromoq*

Mavzu: Fe’llarning zamon shakllari. O‘tkan zamon shakllari va uning yasalishi. O‘tkan zamon shakllarida to‘liqsiz fe’lning ishlatilishi

Bilib oling. Fe’l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo‘lishini bildiruvchi shakllar zamon shakllari sanaladi.

Fe’l uchta zamon shakllariga ega: o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon: *bordim, boryapman, borchoqchi*

Bilib oling. O‘tgan zamon shakllari harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtidan oldin bo‘lganini bildiradi. *Kecha muzeysaga bordik*.

Bu zamon shakllari fe’l asoslariga -di, -(i)b, -gan (-kan, -qan) qo‘shimchalarini va ulardan so‘ng shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Bilib oling. -di qo‘shimchasi bilan yasalgan o‘tgan zamon shakli so‘zlovchining bevosita o‘zi ko‘rgan harakat va holatni bildiradi. Bu qo‘shimchadan so‘ng shaxs-son qo‘shimchasining -m, -k (qoldim, qoldik), -ng, -ngiz (qolding, qoldingiz) shakllari qo‘llaniladi. *Uyga vazifani bajardik*.

-(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan o‘tgan zamon shakli ilgari ro‘y bergen harakat va holatning so‘zlovchi tomonidan eshitib bilinganini ifodalaydi va bu qo‘shimchadan so‘ng shaxs-son qo‘shimchasining -man, -miz, -san, -siz, -di (-lar) shakllari qo‘shiladi: *Musobaqada g‘alaba qozonibsiz*.

-gan qo‘shimchasi bilan yasalgan o‘tgan zamon shakli harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi va bu qo‘shimchadan so‘ng shaxs-son qo‘shimchasining -man, -miz; -san, -siz shakllari qo‘shiladi: *Biz Samarqandga borganmiz*.

Bilib oling. Edi, emish, ekan fe’llari to‘liqsiz fe’llar sanaladi. Bu fe’llar yetakchi fe’lning zamon shakllaridan so‘ng keladi, shaxs-son qo‘shimchalarini

to‘liqsiz fe’lga qo‘shiladi: *kelgan ekansan* (*eding, emishsan*), *kelayotgan ekansan* (*eding, emishsan*).

Edi, emish, ekan to‘liqsiz fe’llari -di, -mish, -kan shaklida ham qo‘llaniladi. *Masalan: borgandi, borganmish, kelarkan.*

Mavzu: Hozirgi zamon shakllari, talaffuzi va imlosi

Bilib oling. Hozirgi zamon shakllari fe’l asoslariga -yap(ti), -moqda, -(a)yetir, -(a)yotib qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi: *Yomg‘ir yog‘ayapti*. Hozirgi zamon shakllari harakat va holatning gap aytيلayotgan vaqtida yuz berishini ifodalaydi. Shaxs-son qo‘shimchalarini zamon qo‘shimchalaridan so‘ng qo‘shiladi: *Dugonamnikidan kelayotibman*.

Bilib oling. -yetir, -yotib shakllari unli bilan tugagan fe’l asoslariga, -ayotir, -ayotib shakllari esa undosh bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shiladi: *borayotir, kelayotir*

-yap shakli undosh bilan tugagan fe’l asoslariga qo‘shilib, -ayap holida talaffuz qilinsa ham, -yap yoziladi: *boryapti*

Mavzu: Kelasi zamon shakllari

Bilib oling. Kelasi zamon shakllari harakat yoki holatning gap aytيلayotgan vaqtida so‘ng yuz berishini bildiradi. Bu zamon shakllari fe’l asoslariga -a, -y, -(a)r qo‘shimchalarini va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi. *Ertaga boraman. Uch-to‘rt kun chidaysan. Doston oxirini ertaga o‘qirmiz.*

Bu shakllar ba’zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. *Masalan: Akam kollejda o‘qiydi.*

Esda saqlang. Undosh bilan tugagan fe’l asoslariga kelasi zamonning -a, -ar, unli bilan tugagan fe’l asoslariga -y, -r, bo‘lishsiz fe’l shakllariga esa -s qo‘shimchasi qo‘shiladi. -(a)r shakli kelasi zamonni gumon, taxmin yo‘li bilan ifodalaydi: *Ertaga yomg‘ir yog‘ar*.

Mavzu: Mayl shakllari

Bilib oling. Fe’l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istik, shart ma’nolarini ifodalovchi fe’l shakllari mayl shakllari sanaladi. Fe’llarning uchta mayl shakli mavjud: 1) xabar mayli; 2) buyruq-istik mayli; 3) shart mayli.

Bilib oling. Harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni bildiruvchi fe’l shakli xabar mayli shakli hisoblanadi. Xabar mayli shakli maxsus qo‘shimchaga ega emas. Zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qabul qilgan fe’llar xabar maylidagi fe’llar sanaladi: *Akam ertaga kelyapti*.

Bilib oling. Harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma’nolarini bildirgan fe’l shakli buyruq-istik mayli shakli sanaladi: *Hech kim kasal bo‘lmisin*.

Buyruq-istik mayli shakllari fe’l asoslariga quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi: -(a)y, -(a)yin, -gin (-kin, -qin), -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar: *boray, borayin, o‘qigin, chiqqin, yozing, ishlasin, ketaylik, uxlanglar*

Bilib oling. Fe’lning zamon, shaxs-son qo‘shimchalarisiz qismi II shaxs buyruq-istik maylini ifodalaydi: *bor, kel, tur*. Bu qismga buyruq-istik ma’nosini

kuchaytirish uchun -gin qo'shimchasini qo'shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma'nodosh sanaladi: *borgin, kelgin, turgin*

Bilib oling. Boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat va holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli shart mayli shakli sanaladi, u -sa qo'shimchasi yordamida yasaladi: *Men institutga kirsam.*

Bilib oling. Shart mayli edi, ekan to'liqsiz fe'llari bilan kelganda, orzu-istak ma'nosini bildiradi: *Oyim atlas ko'yak olib bersa edi.*

-sa edi shakli ba'zan -saydi tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *Bahor tezroq kela qolsaydi.*

Shart mayli shakli kerak so'zi bilan kelganda, taxmin-gumon ma'nosini bildiradi: *Yomg'ir tez tinsa kerak.*

Mavzu: Shaxs-son shakllari

Bilib oling. Fe'lida ifodalangan harakat yoki holatning bajaruvchi shaxsini, bu shaxsning bitta yoki ko'p ekanligini bildiruvchi shakllar shaxs-son shakllari sanaladi. Fe'llarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. Masalan: *bordim, boarding, bordi, bordik, boardingiz, bordilar.*

III shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi: *o'qidi, yozdi.*

Esda saqlang. O'tgan zamonning -di hamda kelasi zamon shart mayli -sa shakllaridan so'ng -m, -ng, -k, -ngiz qo'shimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe'lning hozirgi zamon shakllaridan so'ng -man, -miz, -san, -siz qo'shimchalari qo'llaniladi.

Mavzu: Ot

Bilib oling. Ot nom bildiruvchi so'z turkumi bo'lib, shaxs, narsa, joy ma'nolarini anglatadi va «kim?», «nima?», «qayer?» so'roqlariga javob bo'ladi.

«Kim?» so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, «nima?» so'rog'i narsa, faoliyat-jarayonni bildiruvchi so'zlarga, «qayer?» so'rog'i joy nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shunga ko'ra otlar shaxs otlari, narsa otlari, faoliyat-jarayon otlari, o'rinn-joy otlariga bo'linadi: Ota- shaxs oti, kitob-narsa oti, terim –faoliyat-jarayon oti, gulzor –o'rinn–joy oti.

Mavzu: Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Bilib oling. Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar sodda ot hisoblanadi. *Masalan: uy, yer, tosh, tuz, daraxt.*

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar qo'shma ot sanaladi. *Masalan: qo'lqop, oltingugurt, beshiktervatar.*

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlarga juft otlar deyiladi. *Masalan: o'g'il-qiz, idish-tovoq, ota-on.*

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar takroriy otlar sanaladi. *Masalan: tuz-puz, tovoq-povoq, uy-puy.*

Bilib oling. Quyidagi qo'shma otlar qo'shib yoziladi:

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar har doim qo'shib yoziladi: *qorbo'ron, qizilishton, ko'ksulton, kungaboqar, o'rribosar.*

Ikkinci qismi turdosh otdan iborat bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi: *beshariq, qorqiz, qashqadaryo*.

Ikkinci qismi atoqli otdan iborat bo‘lgan qo‘shma otlar esa ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, Quyi Chirchiq*.

Bilib oling. Juft va takroriy otlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qozon-tovoq, yor-yor*

Esda tuting. Es-es, chelak-chelak, qator-qator kabi takror kelgan otlar ravish so‘z turkumiga o‘tadi.

Mavzu: Atoqli otlarning turlari va imlosi

Bilib oling. Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar sanaladi: *Yulduz, Boychibor, Gurlan*

Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko‘ra shaxs nomlari, joy nomlari va narsa nomlariga bo‘linadi.

Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar shaxs nomlari sanaladi: *Dilbar O‘rinova, Azamat Shuhrat o‘gli, Norin shilpiq*

Esda tuting. Familiyalar shaxs ismidan so‘ng otasining ismini qoldirish (Usmon Nosir), otasining ismiga -ov(a), -yev(a) qo‘shimchasini qo‘shish (Erkin Vohidov) bilan ifodalananadi.

Bilib oling. Ma’lum bir geografik hududga atab qo‘yilgan nomlar joy nomlari hisoblanadi. Mamlakat, o‘lka, nomlari qo‘shma so‘z shaklida bo‘lganda, tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari*

Esda tuting. Tarkibida bo‘yi, orti, oldi so‘zlar ishtirok etgan joy nomlari qo‘shib yoziladi: *Boltiqbo‘yi, Kavkazorti*,

Bilib oling. Xalqaro tashkilot, oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan yoziladi: *Jahon Tinchlik Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*.

Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: *Bosh vazirning o‘rinbosari, Fan va texnika davlat qo‘mitasi*.

Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar qo‘shtirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat birinchi so‘z) yoziladi: «Turkiston» (saroy), «Sharq gullari» (firma).

Bilib oling. Tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: *8-mart — O‘alqaro xotin-qizlar kuni*

Bilib oling. Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan yoziladi: *Katta Farg‘ona kanali, Boltiqbo‘yi*

Mavzu: Turdosh otlar. Shaxs otlari

Esda tuting. Bir turdagisi shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar sanaladi: *nonvoy, qalam, do‘kon, terim*.

Bilib oling. Shaxs otlari «kim?» so‘roq’iga javob bo‘lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik

darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlab keladi: *kishi, chol, qishloqlik, direktor, quruvchi, shahzoda, ota*,

Bilib oling. Shaxs otlarining bir guruhi asosga -chi, -soz, -kor, -xon, -dosh, -boz (-voz), -vchi, -lik qo‘shimchalarini qo‘shish yordamida yasaladi: *suvchi, soatsoz, tadbirkor, kitobxon, sinfdosh, dorboz, suzuvchi, nukuslik*.

-vchi qo‘shimchasi i unli bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda, i unli u shaklida, a bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda, a unli o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *o‘quvchi, aniqlovchi*. Undosh bilan tugagan fe’llarga -uvchi shaklida qo‘shiladi: *quruvchi, suzuvchi*.

Esda tuting. -lik qo‘shimchasi o‘rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo‘shilgan -lik qo‘shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: *samarqandlik, shaharlik*.

Mavzu: Narsa otlari

Bilib oling. «nima?» so‘rog‘iga javob bo‘lib, jonli va jonsiz narsalarni bildirgan otlarga narsa otlari deyiladi: *kitob, qushcha*,

bilib oling. Narsa otlari -gich (-qich, -kich, -g‘ich), -gi (-qi, -ki, -g‘i), -k, -q, -oq, -(i)ndi, -ma, -don va boshqa qo‘shimchalar yordamida yasaladi: *kulgich, tutqich, ko‘rsatkich, o‘chirgich, supurgi, sanchqi, tomizg‘i, elak, taroq, o‘roq, cho‘kindi, surma, guldon*

-q qo‘shimchasi a unli bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda, a unli o shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: bo‘ya+q =bo‘yoq kabi.

Mavzu: O‘rin-joy nomlari

Bilib oling. «qayer?» so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi otlar o‘rin-joy otlari sanaladi. bunday otlar o‘rin-joy ma’nosini bilan birga narsalik ma’nosini ham bildiradi, shuning uchun «qayer?» so‘rog‘i bilan birga «nima?» so‘rog‘ini olishi ham mumkin.

-zor, -loq, -iston, -goh qo‘shimchalari o‘rin-joy otlarini yasaydi: *lolazor, toshloq, guliston, oromgoh*

Mavzu: Faoliyat-jarayon otlari

Bilib oling. Shaxs va narsalarning faoliyat jarayonini nomlovchi otlarga faoliyat-jarayon otlari deyiladi.

Eslab qoling. Faoliyat-jarayon otlari -lik, -chilik, -garchilik, -(i)m, -(i)k (-q) qo‘shimchalari yordamida yasaladi: *ezmalik, g‘allachilik, serobgarchilik, terim, unum va hokazo*.

Mavzu: Aniq va mavhum otlar

Bilib oling. Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lgan narsalarni bildirgan otlarga aniq otlar deyiladi: *kitob, mashina, uy, eshik, dutor va hokazo*.

Sezgi a’zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo‘lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlarga mavhum otlar deyiladi: *xayol, aql, o‘y, go‘zallik va hokazo*.

Aniq otlar birlik va ko‘plik shaklida qo‘llana oladi, ammo mavhum otlar ko‘plik shaklida qo‘llanganda, asosan, ko‘plik ma’nosni emas, balki ta’kidlash, kuchaytirish ma’nolari ifodalananadi:*Sevinchlar toshdi qirg‘oqdan*.

Bilib oling. Mavhum otlar -lik, -ch, -inch qo‘shimchalari yordamida yasaladi: *tinchlik, ishonch, sevinch*

Mavzu: Otlarning lug‘aviy shakllari.

Bilib oling. Otlarning lug‘aviy shakllariga ko‘plik, kichraytirish va erkalash shakllari kiradi. Otlarning -lar qo‘shimchasini olgan shakli ko‘plik shakli, -lar qo‘shimchasisiz shakli esa birlik shakli sanaladi. *kitob –birlik, kitoblar –ko‘plik*

Otlarning ko‘plik shakli ko‘plik ma’nosidan tashqari hurmat, umumlashtirish, kuchaytirish (ko‘zim —ko‘zlarim, labi—lablari) ma’nolarini ham ifodalashi mumkin.

Bilib oling. Otlarning -cha, -choq, -chak kabi qo‘shimchalarni olgan shakli kichraytirish shaklidir: *kuchukcha, toychoq, kelinchak*

-gina (-kina, -qina) -jon, -xon, -oy kabi qo‘shimchalarni olgan shakli esa erkalash shakli hisoblanadi: *gulgina, Tohirjon, Hurmatoy*

Mavzu: Sifat va uning yasalishi

Bilib oling. Otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va «qanday?», «qanaqa?» so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarga sifat deyiladi: *sariq, yumshoq, haybatli kabi*.

Bilib oling. Sifatlar tarkibiga ko‘ra tub va yasama sifatlarga bo‘linadi. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va so‘z yasovchi qismdan iborat bo‘lgan sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo‘shimchalar qo‘shish yoki so‘z qo‘shish yo‘li bilan hosil qilinadi. *Demak, shirin, qizil sifatlari tub sifatlar; gulli, dovyurak sifatlari yasama sifatlardir.*

Bilib oling. -li, ser-, -dor, -siz, no-, -chan, -ma, -iy(-viy) kabi qo‘shimchalar sifat yasovchi qo‘shimchalar hisoblanadi: *aqli, seryog‘, guldar, mehrsiz, noto‘g‘ri, hayolchan, o‘yma, axloqiy, dunyoviy*

Esda tuting. -li, -dor, ba-, ser-, -mand qo‘shimchalari asosda ifodalangan belgiga egalikni bildiradi: *davlatli, davlatmand, baquvvat, serhosil, hosildor*. Bu qo‘shimchalar (-mand qo‘shimchasiidan tashqari) asosda ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi no-, -siz, be- qo‘shimchalari bilan zid ma’nolidir: nodavlat, quvvatsiz, behosil,

Bilib oling. -gi (-ki, -qi) qo‘shimchasi payt va o‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilib, payt va o‘ringa xos belgini bildiradi: *qishki, bahorgi, sirtqi*

-simon qo‘shimchasi o‘xhashlik belgisini ifodalaydi: *yulduzsimon*

-(v)iy qo‘shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *ilmiy, zamonaviy*

Mavzu: Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

Bilib oling. Sifatlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy bo‘ladi. bir asosdan iborat bo‘lgan sifatlar sodda sifatlar sanaladi: *oq, kichik, aqli, keng, shirin*

Bilib oling. Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar qo'shma sifatlar hisoblanadi: *Umumbashariy g'oya, xushbo'y hid kabi*. Qo'shma sifatlar, asosan, qo'shib yoziladi.

Bilib oling. O'zaro yaqin yoki zid ma'noli ikki asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifat juft sifat hisoblanadi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *katta-kichik*

Esda tuting. Juft sifat qismlari -u, -yu vositasida bog'lansa, ular ajratib yoziladi: *yakka-yu yagona*.

Bilib oling. Bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan sifat takroriy sifat sanaladi. Takroriy sifatlar belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalaydi: *barra-barra go'sht*. Takroriy sifat qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Mavzu: Asliy va nisbiy sifatlar

Bilib oling. Belgini to'g'ridan to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: *go'zal, chiroyli, shirin, oq, aqli, yuzaki*. Bunday sifatlar -roq qo'shimchasini qabul qiladi. Belgini to'g'ridan to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lman sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi: *qishki, ko'chma, derazali, devoriy*. Bunday sifatlar -roq qo'shimchasini qabul qilmaydi.

Mavzu: Sifat darajalari

Bilib oling. Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma'no ifodalovchi shakllar esa daraja shakllari deyiladi.

Esda saqlang. Sifatning quyidagi to'rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.

Picha qizil-qizilroq-qizil-juda qizil demak rang darajalanyapti

Bilib oling. Belgining odatdag'i me'yorda ekanligini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli oddiy daraja shakli deyiladi: *oq, kichik, aqli, keng, shirin*

Bilib oling. Belgining me'yordan ortiq ekanligini bildirgan sifat shakli orttirma daraja shakli deyiladi:

Esda saqlang. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi: *bo'm-bosh hovli*

1) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat so'zları keltiriladi: *juda qizil, g'oyat shirin*.

2) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: *bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri*.

Bilib oling. Belgining me'yordan biroz oz yoki ko'p ekanligini qiyosan ifodalaydigan sifat shakli qiyosiy daraja shakli deyiladi. Qiyosiy daraja shakli -roq qo'shimchasi yordamida yasaladi: *balandroq bino, ziyrakroq o'quvchi*

Bilib oling. Belgining me'yordan kam ekanligini bildiruvchi shakl sifatning ozaytirma daraja shakli hisoblanadi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga sal, biroz, picha, xiyla, nim so'zlarini qo'shish orqali hosil qilinadi: *biroz kichik, nim pushti, picha baland*

Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan -(i)mtir, -ish qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli yasaladi: *ko'kimir, oqish*

Mavzu: Sifatlarning ma'no guruhlari

Bilib oling. Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) xususiyat sifatlari; 2) rang-tus sifatlari; 3) maza-ta'm sifatlari; 4) hajm-o'lchov sifatlari; 5) hid bildiruvchi sifatlari; 6) makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar.

Mavzu: Xususiyat, hajm-o'lchov, makon-zamon sifatlari

Bilib oling. Narsalarning turli xususiyat-holatlarini bildirgan sifatlar xususiyat sifatlari, hajmi, vazni, o'lchovi va shaklini bildirgan sifatlar hajm-o'lchov sifatlari, o'rin va vaqtga nisbatan belgilarini bildirgan sifatlar makon-zamon sifatlari deyiladi. Misollar:

Gapdon, olifta, zukko xususiyat sifatlari

Mo'jaz, keng, jajji hajm-o'lchov sifatlari

Kuzgi, to'ng'ich, avvalgi makon-zamon sifatlari

Mavzu: Rang-tus, maza-ta'm va hid bildiruvchi sifatlar

Bilib oling. Narsalarning rang-tusini bildirgan sifatlar rang-tus sifatlari, maza-ta'mini bildirgan sifatlar maza-ta'm sifatlari, hidini bildirgan sifatlar hid sifatlari deyiladi: *oq, qizil, qora rang-tus sifatlari*

Nordon, taxir, shirin ma'za-ta'm sifatlari

Xushbo'y, badbo'y, hid sifatlari

Mavzu: Sifatlarning otlashuvi

Bilib oling. Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtida uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi va ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi: *Ilg'orlarga mukofotlar topshirildi. Gapdag'i sifatidan keying ot tushirilgan va sifatga -lar va -ga qo'shimchalari qo'shilib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan.*

Mavzu: Son

Bilib oling. Narsalarning son-sanog'i va tartibini bildirib, «qancha?», «necha?», «nechanchi?» so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar son deyiladi: *o'n bir, sakkizinch'i*

Mavzu: Sonlarning ma'no guruhlari

Bilib oling. Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarining miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar.

Bilib oling. Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr sonlarga bo'linadi.

Mavzu: Sanoq son

Bilib oling. Son-sanojni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi: *bir, ikki, uch, ...* Sanoq sonlar yozuvda, ko'pincha, arab raqami bilan yoziladi.

Mavzu: Dona son, uning yasalishi

Bilib oling. Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Ular -ta qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *o'nta, yigirma uchta*

Donalash ma'nosi -ta qo'shimchasidan tashqari dona so'zi bilan ham ifodalanadi: *ikki dona*

Narsalarning turini ta'kidlash uchun bosh (hayvonlar), nafar (shaxslar), tup (o'simliklar), litr (suyuqlik), gramm (og'irlik) kabi so'zlar ham ishlataladi.

Mavzu: Chama son, uning yasalishi

Bilib oling. Narsaning miqdorini taxminlab, chandalab ko'rsatadigan sonlarga chama son deyiladi. Ular -tacha, -lab, -larcha kabi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi: *yuzlab, minglarcha*

Shuningdek, chama ma'nosi sonlarni juftlash yo'li bilan ham ifodalanadi: *ikki-uch, besh-olti, o'n-o'n besh.*

Mavzu: Jamlovchi son, uning yasalishi

Bilib oling. Narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlar jamlovchi sonlar deyiladi. Ular -ov, -ala, -ovlon kabi qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi: *ikkov, to'rtala, oltovlon*

Esda saqlang. -ov, -ala qo'shimchalari faqat ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga qo'shilib, jamlik ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimchalar unli bilan tugagan sanoq sonlarga qo'shilganda, asos qismdagi i unlisi tushib qoladi: *ikkov, oltala, yettovlon,*

Mavzu: Taqsim son, uning yasalishi

Bilib oling. Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlarga taqsim son deyiladi. Ular -tadan qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *Laylak har yili uchtadan bola ochar ekan.*

Mavzu: Kasr sonlar. Ularning yasalishi va imlosi

Bilib oling. Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar kasr son deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha chiqish kelishigida keladi: *o'ndan bir, uchdan ikki.*

Esda tuting. Suratda bir mahrajda ikki ifodasi ikkidan bir yoki yarim, suratda bir mahrajada to'rt ifodasi to'rtdan bir yoki chorak, suratda bir mahrajda sakkiz ifodasi sakkizdan bir yoki nimchorak tarzida o'qiladi.

Mavzu: Hisob so'zlar

Bilib oling. Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanilib, bu narsaning o'ichovini bildiradigan so'zlar hisob so'zları sanaladi: *ikki nafar talaba*

Mavzu: Tartib sonlar

Bilib oling. Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlar tartib sonlar deyiladi. U -(i)nchi qo'shimchasi yordamida yasaladi: *ikkinchi, o'ninchi*

Esda saqlang. Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda, -(i)nchi qo'shimchasi o'rnida arab raqamidan so'ng chiziqcha yoziladi: *9-sinf, 30-dekabr.* tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganda, chiziqcha qo'yilmaydi: *XXI asr*

Mavzu: Ravish

Bilib oling. Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va «qanday?», «qachon?», «qayer (-ga, -da, -dan)?», «qancha?» singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi:*taz, oldinda, bugun, ko 'p*

Mavzu: Ravishlarning yasalishi. Tub va yasama ravishlar

Bilib oling. Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi: *olg 'a-tub ravish, qahramonona-yasama ravish*

Yasama ravishlar qo'shimchalar qo'shish, asos qismni juft va takror qo'llash yoki ikki asosni biriktirish yo'li bilan hosil qilinadi:*uyalgannamo, astasekin, ahyon-ahyonda, o'sha zamonda*

Tuzilishiga ko'ra ravishlarning sodda, qo'shma, juft va takrорiy turlari farqlanadi.

Mavzu: Ravish yasovchi qo'shimchalar

Bilib oling. -cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga qo'shimchalari ot, sifatga qo'shilib ravish yasaydi. *Sahar(ot) –saharlab(ravish), mard(sifat)-mardona(ravish)*

Esda saqlang. Bu kabi ravishlarda -dan, -ga, -da kelishik, -(s)i egalik qo'shimchalari asos qism bilan mustahkam birikib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan. *To 'satdan, ertaga, oldinda, kechasi*

Mavzu: Ravishlarning ma'no turlari

Bilib oling. Ravishlar ma'nosiga ko'ra holat, payt, o'rin, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo'linadi.

Esda tuting. *Ataylab, atayin, noiloj, noilojlikdan, jo 'rttaga, qasddan* kabi ravishlar maqsad-sabab ravishlari hisoblanib, ularning miqdori u qadar ko'p emas.

Mavzu: Holat ravishlari

Bilib oling. Harakat-holatning qanday holda bajarilganligini bildirgan va «qanday?», «qay holda?», «qay tarzda?» so'roqlariga javob bo'luvchi ravishlarga holat ravishlari deyiladi.

Esda saqlang. Holat ravishlariga *jim, yayov, chindan, qo'qqisdan, to 'satdan, piyoda, tasodifan, astoydil, eskicha, qatorasiga, birma-bir, yakkama-yakka, yonma-yon, bafurja, arang, zo 'rg 'a, mardlarcha* singari so'zlar kiradi.

Mavzu: Payt ravishlari

Bilib oling. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildirib, «qachon?» so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar payt ravishlari sanaladi.

Esda saqlang. Payt ravishlariga *endi, hozircha, so 'ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon, dastlab, ertaindin, qishin-yozin, kecha-kunduz* kabi ravishlar kiradi.

Mavzu: O'rin ravishlari

Bilib oling. Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik o'rnni bildirgan va «qayer (-ga, -da, -dan)?» so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar o'rin ravishlari hisoblanadi.

O'rin ravishlariga *olg 'a, ichkarida, tashqarida* singari so'zlar kiradi.

Mavzu: Miqdor-daraja ravishlari

Bilib oling. Harakat va holatning bajarilishidagi miqdor-darajani bildiradigan va «qancha?» so‘rog‘iga javob bo‘ladigan ravishlar miqdor-daraja ravishlari deyiladi:

sal, picha, xiyol, oz, ko‘p, kam, ancha kabi.

Mavzu: Ish qog‘ozlari

Bilib oling. Kishilar o‘rtasidagi rasmiy munosabatlar ish qog‘ozlari deyiladigan turli hujjatlar bilan tartibga solinadi. Tarjimayi hol ana shunday xilmalix ish qog‘ozlaridan biri bo‘lib, unda ma’lum bir shaxs tomonidan o‘z shaxsiy hayoti va faoliyati bayon qilinadi.

Esda saqlang. Tarjimayi hol birinchi shaxs tilidan yoziladi. Birovning hayoti va faoliyati bayon qilingan matn ham tarjimayi hol deb yuritiladi, bunday matnlar uchinchi shaxs tilidan yoziladi, ammo ular ish qog‘ozlari sirasiga kirmaydi.

Rauf Parfi 1943-yilning 27-sentyabrida Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanidagi Sho‘ralisoy qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi.

Otasi – Parfi Muhammadamin o‘qimishli kishi bo‘lib, sho‘rolar quvg‘ini davrida Farg‘onaning Vodil qishlog‘idan Sho‘ralisoyga kelib qolgan. Onasi – Sakinaxonim Isabek qizi ham mumtoz adabiyotni biladigan ayol bo‘lib, u ham asli farg‘onalik edi.

Rauf Parfi 1950-yilda Sho‘ralisoydagi mактабга о‘qishga boradi va u yerda 1956-yilgacha saboq oladi. So‘ng qo‘shni qishloqdagi maktabga o‘tib, bu yerda 1958-yilgacha tahsilni davom ettiradi. Sakkizinchи sinfni tugatgach, o‘qishni Yangiyo‘l shahridagi kechki maktabga o‘tkazib, mehnat faoliyatini boshlaydi... O‘rta ma’lumot olgach, 1960-yilda Toshkent davlat universitetiga o‘qishga kiradi...

Ulkan o‘zbek shoiri Rauf Parfi 2005-yilning 28-martida yurak xastaligidan vafot etdi. («So‘nmas yulduzlar» kitobidan)

Bilib oling. Biror iltimos, so‘rov bilan muayyan rasmiy shaxs yoki idoraga qilingan yozma murojaat ariza deyiladi. Ariza so‘zining ma’nosи “iltimos, murojaat, bosh urish” demakdir. Ariza ish qog‘ozlari orasida eng keng tarqalgan hujjatdir.

Esda saqlang. Ariza matni o‘zining doimiy qolipiga ega. Undagi so‘nggi gapning kesimi odatda so‘rayman, iltimos qilaman kabi so‘zlardan iborat bo‘ladi.

Endi, ariza yozishni o‘rganamiz:

Dastlab, sahifaning o‘ng tomoniga ariza beruvchi shaxsning va ariza orqali kimga murojaat qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning ismi familiyasi qayd qilinadi. Sahifaning o‘rtasiga hujjat nomi “Ariza” so‘zi yoziladi.

So‘ngra asosiy matn keltiriladi. Bu matnda taklif, shikoyat kabilar qayd qilinadi. So‘ng ariza beruvchi shaxsning ismining bosh harfi va familiyasi yozilib, ariza imzolanadi va sana qo‘yiladi. Sana yozishda avval yil, keyin oy va sana yoziladi.

Nukus shahridagi 25-son umumta'lim maktabi direktori G.E.Allaxovaga
5-sinf o'quvchisi Sanjarbek Kazakboyevdan
ARIZA

Oilamiz bilan Nukus shahriga yashash uchun ko'chib kelganligimiz sababli meni maktabning 5-sinfiga qabul qilishingizni so'rayman.

2015.20.10 (imzo)

S.Kazakboyev

Tayyorlangan matn asosida mobil telefondagи diktafon ilovasi orqali audiolar tayyorlanadi.

SunRav Book Editor dasturiga qaraqanda PowerPoint dasturining imkoniyatlari bir muncha ko'proq bo'lganligi sababli tayyorlanayotgan dasturning dizaynnini PowerPoint dasturida yaratib olish qulaylik tug'diradi:



2.4.-rasm. Power pointdagi ko'rinishi

Dasturiy ta'minot. **Ushbu bosqichda audiodastur sahifalarini yaratishni o'z ichiga oladi. PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimot slaydlaridagi har bir belgini Nusxalab SunRav Book Editorda yaratilgan "раздел" larga joylashtirib chiqiladi:**



2.5.-rasm. Power pointdagi materialning SunRav Book Editor dasturidagi ko‘rinishi
 Audiodasturning strukturasi ishab chiqilgach, unga audio fayllar joylashtiriladi.



2.6.-rasm. Audiodastur strukturasi
 Har bir sahifa oxiriga “Chiqish” tugmachasi va “Mavzular” sahifasiga Гипессылка (Giperishorat) qo‘yiladi.

Giperishorat – faol (rang bilan ajratilgan) matn, veb-sahifadagi tasvir yoki tugma. Uni chertish (giperishoratni faollashtirish) boshqa sahifaga o‘tishga yoki galadagi sahifaning boshqa qismiga o‘tishga olib keladi. 2. Gipermatn shaklida amalga oshirilgan hujjatdagi yozuvlar yoki turli hujjatlar orasidagi aloqa. Aloqa joyi biror usulbilan (masalan, rang bilan, shrift bilan va h.k. ajratiladi)¹⁶

Dastur «Файл менюси» → «Экспорт» → «Компиляция» tarzida saqlanadi.

Tekshirish. Multimedia ilovasini yaratishning asosiy bosqichlaridan biri uni tekshirish hisoblanadi. Tekshirish jarayonida multimedia ilovasining to‘g‘ri ishlashi tekshiriladi, jumladan:

- Gipermurojaatlarning to‘g‘ri ishlashi.

¹⁶ BMTTDning O‘zbekistonligi vakolatxonasi, 2010. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati
 45

- Matn va ko‘rgazmali materiallarda xatolarning mavjud emasligi.
- Multimedia ilovasi sahifalari bo‘ylab navigatsiyaning qulayligi.
- Pochta va boshqa shakllarning to‘g‘ri ishlashi (WEB-sayt uchun).
- Grafik fayllarni yuklashning to‘g‘riliqi (WEB-sayt uchun).
- Saytning turli brarzerlarda to‘g‘ri ishlashi (WEB-sayt uchun).

Multimediali pedagogik master shablon nashr qilish.

Tekshirish bosqichi tamomlangandan keyin WEB-sayt provayder serveriga joylashtirilib, internetda nashr qilinadi va yana qaytadan tekshiruvdan o‘tkaziladi. Multimedia ilovasi reklamasi (WEB-sayt uchun) WEB-jamiyat yangi e’lon qilingan multimedia ilovasi haqida bilishi uchun sayt adresi va veb-saytga joylashtirilgan materiallar haqida annotatsiya orqali xabardor qilish kerak. Buning uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalaniladi:

- Veb-sayt manzilini xatga, tashrif qog‘oziga, broshuralarga, bulletenlarga, bukletlarga, maxsus kompyuter nashrlariga, internet resurslarining “Sariq sahifalar” sonlariga va boshqa nashrlarga kiritish.
- Mashhur izlash saytlarida veb-saytni ro‘yxatdan o‘tkazish.
- Veb-saytlarda ishorat (ssylka) joylashtirish.
- WEB-sayt reklamasi uchun bannerlardan foydalanish.

Krzatib borish (WEB-sayt uchun).

Web-saytga murojaatlar uning nashr etilishi va reklamasidan so‘ng sezilarli darajada unga joylashtirilgan ma’lumotlarning foydaliligi, yangiligi va aktualligi bilan belgilanadi. Veb-sayt imidjini saqlab turish uchun undagi ma’lumotlarni doimiy yangilab borish tavsiya etiladi, aks holda saytning potensial tashrifchilari unga qayta kirmasligi ehtimoli yuqori (butunjahon o‘rgimchak to‘rida necha yillardan buyon yangilanmagan saytlar ham mavjudligini ta’kidlaymiz).

Texnologik bosqichlarni amalga oshirish chizmasi.

Texnologik bosqichlar mazmuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator ishlar va, asosiysi, bu ishlarning natijasi pedagogik multimedia master-shabloni, namoyish shakliga bog‘liq emas. Buni quyidagi chizma ko‘rgazmali ravishda

namoyon qiladi. Chizmada Veb-saytlar uchun maxsus bo‘lgan “Publikatsiya”, “Reklama”, “Kuzatib borish” bosqichlari yo‘q.

2.2. “Ona tili. 6-sinf” audiodasturidan foydalanish uchun ko‘rsatma


“Ona tili. 6-sinf” audiodasturini ishga tushirish quyidagicha amalga oshiriladi:

Fleshka yoki diskdagi fayllar kompyutering xotirasiga ko‘chiriladi. Ko‘chirib olingan fayllar ichidan **Ona tili (6-sinf audiodastur).exe** fayli ishga tushiriladi. Drayverni o‘rnatish uchun xabar chiqadi.



2.7.-rasm. Dasturning ish stolidagi ko‘rinishi

Dasturga kiriladi va Содержание qismidagi “Bosh sahifa” bo‘limi chertiladi. Foydalanuvchiga qulay bo‘lishi uchun ”Полный экран” (To‘liq ekran) tugmasi bosiladi.



2.8.-rasm. To‘liq ekranga o’tkazish



2.9.-rasm. To‘liq ekrandagi ko‘rinishi

Darslar tugmasi orqali foydalanuvchi “Mavzular” bo‘limiga o‘tadi.



2.10.-rasm. Bo‘limlar

“Mavzular” bo‘limida foydalanuvchi o‘ziga kerakli ma’lumotni tez topib olishi uchun darslikdagi tarkum va bo‘limlarga oid mavzular guruhlangan.

Matn

Mavzu nomi

Matn va mavzu

Mavzuning
vozib olinqan



Matn turlari.Hikoya matni



Tasviriy matn



Muhokama matn



Mavzularga qaytish
tugmasi

Chiqish




2.11.-rasm. Mavzular

Audioni boshlash va
to'xtatib turish

Audioning ovozini
kuchaytirish yoki
pasaytirish

Audioni tugatish



2.12.-rasm. Audioni boshqarish qurilmalari

“Dastur va mualliflar haqida” bo‘limida esa dastur va mualliflar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

„Ona tili 6-sinf“ audiodastur o‘z ichiga matn, asos va qo‘sishchalar, morfologiya bo‘limining fe'l, ot, sifat, son va ravish kabi so‘z turkumlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Ushbu audiodastur maktab o‘quvchilari, abituriyentlar va mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo’ljallangan.

Tayyorlandi: 2018-yil
Dastur Nukus davlat pedagogika institute
O‘zbek tili kefedrasida dots. Yuldasheva
Shaxlo rahbarligida 4 –"V" guruh talabasi
Gulmanova Qunduz tomonidan
tayyorlandi.



2.13.-rasm. Dastur mualliflari haqida

UCHINCHI BOB. “ONA TILI. 6-SINF” AUDIODASTURINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

3.1. Audiodasturlardan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalananish tajribasidan

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-V guruh talabasi Gulanova Qunduzning 6-sinf ona tili fanidan “Fe’l bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash” mavzusida tayyorlagan bir soatlik

Dars ishlanmasi

1. Fan nomi: Ona tili

2. Sinf: 6- sinf

3. Mavzu: Fe’l bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. taqvim-mavzu reja asosida 166-dars, IV o‘quv chorak hamda darslikning 187-betida, IV bob.

4. Dars tizimi: Og‘zaki nutq, o‘qish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan

5.Dars tipi: Aralash dars

6. Dars turi: Musobaqa dars

7. Darsning maqsadi:

a) **Ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarga fe’l bo‘yicha berilgan nazariy ma’lumotlarni takrorlash, mustahkamlash, to‘ldirish;

b) **Tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarda do‘stlik tuyg‘usini shakllantirish va uni qadrlashga o‘rgatish;

c) **Rivojlantiruvchi maqsadi:** o‘quvchilarda so‘z qudrati haqidagi bilimlarni oshirish, muomala odobini tushuntirish.

8. Darsning jahozi: darslik, baholash uchun kartochkalar, ta’limiy o‘yinlar uchun tarqatma materiallar, slaydlar, “Ona tili” (6-sinf) audiodasturi

9. Vaqt:

Tashkiliy qism: 4 min.

Uyga berilgan vazifani so‘rash: 6 min.

Mustahkamlash: 27 min

Uyga vazifa berish: 5 min

Baholar bilan tanishtirish: 3 min

10. Tayanch kompetensiya: axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

11. Fanga oid kompetensiya: nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya

Dars jarayoni:

Tashkiliy qism: og‘zaki savol-javob metodi (4 daqiqa.)

- 1) salomlashish;
- 2) tozalikka e’tibor berish;
- 3) davomatni aniqlash;
- 4) guruhlarga bo‘linish (3 ta) va nom tanlash.

Uyga berilgan vazifani so‘rash: og‘zaki savol-javob metodi (10 min.)

Jarayonni tashkil qilish qadamlari.

- 1) uyga berilgan vazifa so‘raladi;
- 2) tuzilgan matnlar o‘qiladi;
- 3) vazifaning qanday bajarilganligi nazorat qilinadi;
- 4) vazifani bajargan o‘quvchilar baholandi.

Mustahkamlash: “Xotira maydoni”, og‘zaki tahlil, “Zanjir” metodlari (27 daqiqa)

Jarayonni tashkil qilish qadamlari.

1. “Xotira maydoni” metodi (10 daqiqa). Fe’l mavzusi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash uchun har bir guruh 3 tadan savol tanlab, javob beradi va audiodastur orqali tekshiriladi:

Shart tarzda bajariladi va o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

Fe'l



3.1.-rasm. Dasturladi “Fe'l” bo‘limining umumiy ko‘rinishi

1. Fe'l deb nimaga aytiladi? *Javob: Nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakat, holatini ifodalagan so'z turkumi fe'l deyiladi.*

2. Fe'l nisbatlari deb nimaga aytiladi? *Jonlanmoq fe'lning nisbat shakllarini toping va ular o'rtasidagi farqlarni tushuntiring. Javob: Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari nisbat shakllari sanaladi: jonlanmoq – aniq nisbat; jonlantirdi – orttirma nisbat.*

3. Harakat nomi nima va unga misollar keltiring: *Javob: Fe'lning otga xoslangan shakli harakat nomi deyiladi va fe'l asoslariga -(i)sh, -(u)v, -moq qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan yasaladi. O'qish, yugurmoq kabi.*

4. Sifatdosh bu - ..? *Uning sifatga va fe'lga xos xususiyatlarini belgilang. Javob: Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdoshlar fe'l asoslariga -gan (-kan, -qan), -ydigan (-adigan), -(a)yotgan, -(a)r qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Sifatdoshlar shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalasa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi.*

5. Ravishdosh va ravishdosh yasovchi qo'shimchalarni ayting. Ular ishtirokida ravishdoshlar hosil qiling. *Javob: Fe'lning ravishga xoslangan shakli ravishdosh deyiladi. Ravishdosh yasovchi qo'shimchalar: -(i)b, -a// -y, -gancha (-kancha, -qancha), -gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani, -gali).*

6. Fe'l yasalishi nima? -la, -lan, -i, -sira, -(a)y qo'shimchalari yordamida fe'llar yasang. *Javob: Boshqa so'z turkumlariga qo'shimcha qo'shib, fe'l so'z turkumiga oid so'z yasash fe'l yasalishi deyiladi. -la, -a qo'shimchalari ot, sifat, undov so'zlardan (qona, ulug'la, g'uvla), -(a)y, -i, -sira, -sa qo'shimchalari ot va sifatlardan (kuchay, boyi, suvsira, suvsa), ba'zan ravishlardan (kamay), -(a)r qo'shimchasi sifatlardan (qisqar), -illa, -ira qo'shimchalari taqlid so'zlardan (chirsilla, yarqira) fe'l yasaydi. -sira qo'shimchasi sen, siz olmoshlaridan ham fe'l yasaydi: sensira, sizo'sira.*

7. Fe'l zamonlari bu –...? Fe'llarga misollar aytib, uch zamonda tuslang. *Javob: Fe'l asosida ifodalangan harakat-holatning uch zamondan birida sodir bo'lishini bildiruvchi shakllar zamon shakllari sanaladi: bordim, boryapman, bormoqchi.*

8. Fe'l mayli deb nimaga aytildi? *Javob: Fe'l ifodalagan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istik, shart ma'nolarini ifodalovnhi fe'l shakllari mayl shakllari sanaladi.*


9. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlarini ayting misollar keltiring. *Javob: Fe'llar tuzilishiga ko'ra to'rt xil bo'ladi: a) sodda fe'llar; b) qo'shma fe'llar; d) juft fe'llar; e) takroriy fe'llar. O'qidi, javob berdi, chiqdi-ketdi, kula-kula.*

2. Og'zaki tahlil (10 daqiqa). Bunda har bir guruh 473-mashqdagi bir xatboshini o'qib mazmunini gapirib beradi. Gaplardagi fe'llarning nisbat, zamon va mayl shakllarini og'zaki tahlil qilishadi.

3. "Zanjir" (7 daqiqa). O'quvchilarga she'riy parchalar beriladi (Ilyos Muslim "Do'stlik" she'ri) va undagi ajratib ko'rsatilgan fe'llar namunadagi zanjir asosida tahlil qilinadi: Har bir guruh fe'llarni to'g'ri tahlil qilishi kerak.

1. Bizlar urushib yirtmaymiz yoqa,
O‘ynaymiz doim biz musobaqa.
Tur mushimiz **shod o‘tadi** shunda,
Yog‘liq patirlar yopilar kunda.
2. Juda **mo‘1 bo‘1ar** shokoladlar ham,
Stolga to‘1ar marmeladlar ham.
Ko‘payar yana shirin kulcha -non
Holva-yu konfet, obakidandon.
3. Bog‘larimizda yayraymiz har dam,
Bilim olamiz, **kuylaymiz** bardam.
Dunyoda xalqlar kun kechirsa tinch,
Ota-onalar **tashvish tortmas** hech.

Namuna:



3.2.-rasm. “Zanjir” usulidan foydalansih uchun tarqatma material ko‘rinishi

Guruhlardan javoblarini almashtirib slayd orqali tekshiradilar. Natijalar aniqlanib guruhlarga kartochkalar beriladi.

Uyga vazifa berish. Aqliy hujum (3 daqiqa.) 475-mashq: «Mening ta’tildagi rejalarim» mavzusida matn tuzish topshiriladi. Bo‘sh vaqlarni qanday mazmunli va qiziqarli o‘tkazish to‘g‘risida o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi. Unda ishlatilgan fe’llarni izohlab namuna ko‘rsatiladi.

Baholar bilan tanishtirish. (3 daqiqa) Dars yakunida ballar hisoblanib g'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol qantashgan o'quvchilar ham rag'batlantiriladi.


3.2. Mavzuni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish tajribasida yuqori samaradorlik omili sifatida qaralayotgan audiomaterialarning ona tili ta'limidagi o'rni ham beqiyosdir. Nukus davlat pedagogika institutida pedagog-xodimlar, magistrant va talabalar hammuallifligida 5-sinf ona tili ta'limi uchun elektron o'quv-metodik majmua tayyorlanib 2015-yildan buyon Qoraqalpog'iston Respublikasi umumta'lim maktablarida tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda.

Elektron majmuaning nazariy ma'lumotlarni bayon qilish qismida "O'zbek bolasi" (J.Mirsagatov), "Alla" (H.Oxunova), "To'y bola" (R.Komilov) kabi qo'shiqlardan, shuningdek, darslarning mustahkamlash qismi uchun tez aytishlar, ertaklar yozilgan audiomatnlar foydalanildi va ularning samaradorligi tajriba-sinovlarda aniqlandi. "Ayrim unlilar va undoshlar imlosi" mavzusi (3-4-darslar) uchun tez aytishlar audioimatn sifatida tayyorlandi:



3.3-rasm. Elektron adabiyotda tez aytishlarning foydalanilishi
Elektron majmuadan mavzu tanlanib, unga kiriladi. Unda audiomatn va mos tasvirlar joylashtirilgan. Audiomatnni boshqarish paneli mavjud:



3.4.- rasm. Audiomatnni boshqarish paneli

1 – audiomatnni to‘xtatish yoki ishga tushirish tugmasi.

2 – ovozni o‘chirish va yoqish tugmasi.

3 – tinglab, tez aytish matnini kiritish uchun bo‘sh joy.

Matn kiritilgach, uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligi tekshiriladi:



3.5- rasm. Audiomatnni tinglash, javobni kiritish va jo‘natish

To‘g‘ri javob uchun rag‘batlantiriladi. Agar javob xato bo‘lsa, o‘quvchiga yana bir imkoniyat beriladi:



3.6- rasm. O‘quvchiga beriladigan imkoniyat

Ikkinchi imkoniyatdan so‘ng, o‘quvchi “Natija” tugmasini bosadi.

To‘plangan ball ko‘rsatiladi. O‘quvchi xatosini “Natijani ko‘rish” tugmasini bosish orqali



3.7- rasm. Javob tahlili

1 – to‘g‘ri javobni ko‘rsatish tugmasi.

2 – o‘quvchi javobi va to‘g‘ri javob.

WWW.ertak.uz saytida “Audiokutubxona” tashkil qilingan bo‘lib, undan audio ertaklar va qo‘shiqlarni yuklab olish mumkin:

www.ertak.uz

Barchasi bolalar uchun...



3.8- rasm. Ertak.uz sayti sahifasi

5-sinf uchun tayyorlangan elektron majmuada “Gap bo‘laklari” mavzusi (61-dars) takrorlanadigan darsda WWW.ertak.uz saytidan yuklab olingan “Oltin tarvuz” audio ertagidan foydalanilgan. Mazkur audio ertakni tinglash va “Esse” topshiriqlarini (3 ta) bajarish jarayonida o‘quvchilar matnni qismlarga ajrata olishlari, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni, uyushiq bo‘laklarni aniqlay olishlari zarur. Bo‘sh o‘ringa gap bo‘laklari tahlili bajarilib kiritilishi kerak. Mazkur topshiriq uchun to‘g‘ri javoblar kiritib qo‘yilmagan. O‘quvchi javobi o‘qituvchining elektron manziliga jo‘natilishi yoki bosmaga chiqarilishi mumkin.



3.9- rasm. ESSE ko‘rinishidagi topshiriq.

Texnika vositalaridan dars jarayonida foydalanish o‘qituvchidan ijodkorlikni, izlanishni talab etadi. Shu bois o‘qituvchining o‘zi ham mavzuga mos audio yoki videomateriallarni tanlashi va yuqorida qayd qilingan 3 bosqichli yoki 6 bosqichli usuldan dars jarayonida samarali foydalanishi mumkin. Bu dars samaradorligining o‘sishiga, o‘quvchilarni fanga qiziqtirishga va ularning mustaqil fikrlashini o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Audiomatnlarni yaratish uchun o‘qituvchi kompyuter dasturlarining ayrimlari bilan tanish bo‘lishi kerak. Jumladan, video, audio bilan ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan Windows Media Player, Vinamp va boshqalar kiradi. Windows Media Player dasturini ishlatishni ko‘rib o‘tamiz. Windows o‘rnatilgan barcha kompyuterlarda Windows Media Player dasturi Windows bilan birgalikda o‘rnatilgan bo‘ladi. Windows Media Player dasturini ishga tushirish uchun Windowsning Pusk tugmasi bosiladi, so‘ngra bosh menyudagi Programme menu ostidan Standarti qismga kiriladi va Windows Media Player ishlatiladi. O‘rgatuvchi dasturlarda video materiallar (roliklar, video filmlar) ishlatilgani va ularni qayta ishlash imkoniyatlariniн bo‘lishini ta’minlash uchun Ulead Video Studio, Movie Maker, Camtasia Studio, Adobe Primiera kabi dasturlardan foydalanish mumkin.

Ushbu dasturlar yordamida video materialga ovozlar qo‘shish yoki olib tashlash, filmni montaj qilish, hajmini kichraytirish, sifatini qisman yaxshilash


hamda bir formatdan boshqa formatga (videoformatlar: AVI, DV, DVD, MPG, MP4, WMV, DAT, 3GP) o‘tkazish kabi ishlarni bajarish mumkin.

O‘rgatuvchi dastur yaratishda ushbu dasturlarda ishslash jarayonini to‘g‘ridan to‘g‘ri hech qanday tasvirga tushiruvchi qurilmasiz yozib olish mumkin. Bu ishni Camtasia Studio, Adobe Captivate dasturlari yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari ushbu dasturlar yordamida kompyuterga ulanuvchi mikrofon qurilmasi orqali tasvirga olish bilan bir vaqtida, jarayonning sharhlab ketilishi (ovoz)ni ham yozib olish imkoniyati mavjud. Camtasia Studio va Adobe Captivate dasturlarining yana bir e’tiborga molik xususiyatlaridan biri bu – olingan tasvir va ovozni vektor formati (SWF)ga o‘tkazishidir.

O‘rgatuvchi dasturlar uchun audio materiallarni tayyorlash, montaj qilish (qisqartirish yoki orasiga ovoz va musiqa qo‘sish), qayta ishslash (oshiqcha effektlardan tozalash, ovozni sozlash) kabi ishlarni, audio fayl formatini (audio fayl formatlari: wma, cda, mp3, mp4, wav, asf, rm va x.k.) bir formatdan boshqa formatga o‘tkazish kabi amallarni Sony SoundForge, Fruity Loops, GoldWave, WaveLaB kabi dasturlar yordamida amalga oshirish mumkin.

O‘rgatuvchi dasturda savollarga to‘g‘ri javoblar, yordamchi ma’lumotlar va chuqurlashtirilgan ma’lumotlar bo‘lishi kerak, bulardan o‘quvchi xohlagan vaqtida foydalaniishi mumkin.

Bundan tashqari Ziyouz.com saytida ham katta hajmli Audiokutubxona tashkil qilingan. Unda ko‘plab she’rlar, hikoyalari va romanlar ham bor.



3.10-rasm. Zyouz.com saytidagi audiokutubxona

Audio material ustida bajariladigan an'anaviy metodik ishlar uch bosqichda tashkil qilinadi.

1. Tayyorgarlik bosqichi
2. Namoyish qilish bosqichi (audiomaterial ustida bajariladigan ishlar)
3. Namoyishdan keyingi bosqich

Odatda birinchi bosqichda o'quvchilar audiomaterialni idrok qilishga psixologik jihatdan tayyorlanadi. Bu bosqichda o'qituvchi tomonidan o'tkaziladigan suhbat muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichni to'g'ri tashkil qilish asosiy bosqichlardan kutiladigan natijaga erishish omili sanaladi.

Ikkinci bosqichda talabalar diqqati audiomatnga qaratiladi va matn birlgilikda tinglanadi.

Uchinchi bosqichda esa grammatik topshiriqlar bajariladi.

Albatta, chet tillarni o'qitish borasida to'plangan necha yuz yillik tajribani ona tili ta'limga tatbiq qilish va rivojlantirishga har bir o'qituvchininh muayyan darajadagi hissasi qo'shilmog'i zarur. Eng muhimi esa ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini ommalashtirishni yanada jadallashtirish taqozo qilinmoqda.

XULOSA

Ta’lim tizimida AKTning o‘rni nihoyatda katta. Chunki pedagog uchun professional mahorat nafaqat uning faoliyatini osonlashtiradigan dasturiy-texnik vositalarni yaratishni o‘rganish va qo‘llash, balki o‘qitishi lozim bo‘lgan fanga oid dasturlardan foydalanishga o‘rgatishdan ham iboratdir. Kichik tadqiqotimizdan shuni aniqladikki, audio materiallar asosida o‘quvchilarni o‘qitish orqali ta’lim jarayonini ikki barobar unumli tashkil qilish va vaqtdan yutish mumkin. Jahan tajribaslaridan ham anglashiladiki, o‘rinli foydalanilgan aodiodasturlar orqali o‘quvchi berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyatnga, ta’lim olishga bo‘lgan ishtiyoqining yanada ortishiga, olingan bilimlarning xotirasida uzoq muddat saqlanishi va amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.

Shu bilan birga o‘quvchilar faqatgina tilga oid bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki komputer texnikasidan foydalanish ko‘nikmasiga ham ega bo‘ladilar.

Ikkinci tomondan esa pedagoglarning ishini oshonlashtirishga va o‘z ustida ko‘proq ishlashiga yo‘l ochib beradi.

Tadqiqtimizdan shunday xulosaga keldikki, ”Ona tili” fani doirasida audiodastrularni yaratish va undan foydalanish bo‘yicha adabiyotlar yetarli darajada mavjud emas. Bu borada xorij tajribasi bilan tanishishdan ma’lum bo‘ldiki, rivojlangan davlatlarda AKTni ta’lim tizimida foydalanish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Xususan, audiomateriallarni tayyorlash va amaliyotda qo‘llash borasida biz 20 – 30 yil orqadamiz.

Tadqiqotimizni bajarish jarayonida ilk bora ona tili ta’limi uchun iSpring suit instrumenti negizida yangi ta’lim vositasi – „Interaktiv diktant” audiodasturini yaratish loyihasi ishlab chiqildi va bu borada 3 xil darajadagi – qiyinchilik darjasи oddiy („Tanlash”), o‘rtacha („Bo‘sh o‘ringa kiritish”) va murakkab („Esse”) darajadagi ta’limiy diktant yartish bo‘yicha tavsiyalarimizni keltirib o‘tdik.

Bunday audiodasturlarning yaratilisih fan o‘qituvchilarini o‘quvchilarning nazorat diktantlarini tekshirish jarayonidagi mashaqqatli mehnatini yengillashtiradi.

“Ona tili” (6-sinf uchun audiodastur) audiodasturi yaratilib, umumta’lim maktablarida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda sinovdan o‘tkazildi. Bu audiodastur nazariy ma'lumotlarni chuqur o‘rganish uchun o‘quvchilar uchun qulayliklar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlagan nutqi, 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি ma’ruzasidan, 2016-yil 8-dekabr// Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.:O‘zbekiston,2017. 22-b.
3. BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. – T.: 2010. 60-b.
4. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. –T.: O‘qituvchi, 1995. 9-b.
5. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2012. 291-b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –T.: Tasvir, 2017.
7. Muhitdinova X. Til ta’limida videomatnlar qanday uyg‘unlashadi. //Til va adabiyot ta’limi. -2015. -№8. –B. 15.
8. To‘xliev B., Inog‘omova R., Abdulahatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – T.: 2008. 10-b.
9. To‘xliev B., Inog‘omova R., Tilavova G. So‘z turkumlari va nutq o‘stirish metodikasi. –T.: 2008. 5-b.
10. To‘xliev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili metodikasi. – T.: 2006, 7-b.
11. <http://www.geografiya.uz>
12. <http://www.tami.uz/> Mengliyev Sh. Multimedia ilovalarining turlari

13. <http://www.tami.uz/> Mengliyev Sh. Multimedia vositalari va ulardan foydalanish.

14. <https://ispeak-school.com/chto-takoe-audio-uroki-anglijskogo-yazyka>/Преимущества обучения аудированию в английском языке

15. <https://link.springer.com/> Emanuela Marchetti, Andrea Valente. Interactivity and multimodality in language learning: the untapped potential of audiobooks

16. <https://naukovedenie.ru/> Караева Н.В. Использование аутентичных аудио и видео материалов для повышения мотивации изучения иностранного языка

17. www.infocom.uz

18. www.Ertak.uz

19. www.marifat.uz

20. [www.Ziyonet.uz.](http://www.Ziyonet.uz)

21. [www.ispring.ru.](http://www.ispring.ru)

22. www.yoshlar.uz